

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**  
**O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI**

«Himoyaga tavsiya etilsin»  
Fakultet dekani

«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 201\_\_y.

5111200 – O'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi \_\_\_\_\_guruh talabasi

**NAZAROVA ZULAYHOning "O'zbek tilida uslubiyot"**

mavzusida yozgan

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbar:  
\_\_\_\_\_ **H.Ahmedova**  
O'zbek tili kafedrası katta o'qituvchisi

«Himoyaga tavsiya etilsin»  
"O'zbek tili" kafedrası mudiri  
\_\_\_\_\_ dotsent Sh.Akramov  
«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 201\_\_y.

**Qo'qon – 201\_\_**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	3
<b>1 - BOB. To‘g‘ri nutq tuzishda uslubiyotning o‘rni</b> .....	8
1.1. Grammatik to‘g‘rilik to‘g‘ri nutq tuzish asosi sifatida .....	9
1.2. Uslubiy me‘yorlar - nutq madaniyatining ajralmas bo‘lagi sifatida.....	21
1.3. Uslubni yaratuvchi vositalar.....	29
Bob yuzasidan xulosa.....	33
<b>2- BOB. Nutqning uslubiy shakllari va ta‘lim jarayoniga tatbiqi</b>	
2.1. Nutqning uslubiy shakllari xususida “Nutq uslublari” mavzusining darsliklar va DTSda berilishi .....	34
2.2. Nutqning uslubiy shakllari xususida .....	50
Bob yuzasidan xulosa.....	52
<b>Xulosa</b> .....	65
Adabiyotlar ro‘yxati.....	66
ILOVA. Tayanch so‘zlarning o‘zbekcha-ingilizcha lug‘at.....	67

## **KIRISH. Ishning umumiy tavsifi.**

**Mavzuning dolzarbligi.** O‘zbek tilshunosligining nisbatan yangi sohasi sanaladigan stilistika - uslubshunoslik til birliklarining aloqa vositasi sifatida muomala jarayonida turli soha va vaziyatda qo‘llanishi, nutqni tashkil qilish qonuniyatlari, til tizimidagi barcha vositalarning nutq jarayonidagi imkoniyatlari va ma‘no nozikliklarini aniqlash bilan shug‘ullanadi. «Stilistika – tilda mavjud bo‘lgan barcha vositalar – leksik, grammatik, fonetik vositalardan nutqda qanday foydalanish zarurligini, ma‘lum bir tipdagi forma, so‘z va konstruksiyalardan qaysi birini qo‘llash muvofiq ekanini, yaxshi va eng muvofiq vositasini tavsiya etadi, norma qilib belgilaydi, nutqning turli stilistik qatlamlarida qo‘llanadigan vositalarni belgilab beradi, Shunga ko‘ra, stilistika so‘z san‘ati, ifoda vositalar haqidagi alohida bir fandır».

Tildagi ana shunday muammolar bilan shug‘ullanadigan uslubshunoslikning quyidagi yo‘nalishlari mavjud:

1. Tilning leksik resurslarini o‘rganuvchi yo‘nalish.
2. Funksional stilistika – vazifaviy uslubshunoslik.
3. Badiiy adabiyot uslublari.
4. Amaliy uslubshunoslik.

Mavzu nuqtai nazaridan bu o‘rinda bizni vazifaviy uslubshunoslik qiziqtiradi. Kishilar o‘z ijtimoiy faoliyatlarida tildagi barcha vositalardan – fonetik, grammatik, leksik, frazeologik birliklardan foydalanganlarida, avvalo ularni o‘z ehtiyojlaridan kelib chiqib, nutq mavzusiga, vaziyatga qarab tanlaydilar va qo‘llaydilar. Tilimizdagi vositalarning bir nechalab ko‘rinishlarga ega bo‘lishi, sinonimik rang-baranglik shunday yo‘l tutishga imkon beradi.

Mustaqil fikrlash muloqot madaniyatini, muomala odobini egallash zamirida shakllansa, unda yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatda o‘z o‘rinlarini topib olishlari oson kechadi. Mazkur muammolarni hal etish, yechimlarini ta‘lim jarayoniga tadbiq etish uchun ona tili mashg‘ulotlarida har bir bo‘lim bo‘yicha o‘rganiladigan mavzularning mazmuni chuqur va puxta bilim berishga qaratibgina qolmay, balki u orqali o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, so‘z va gap ustida

ishlash malakasini shakllantirish, og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, har bir nazariy qonun-qoida bo‘yicha o‘zining shaxsiy mulohazalarini bayon qila bilish malakasini hosil qilishga erishish kerak. Chunonchi o‘quvchilarning ona tilidan olgan bilim darajalari tilning grammatik qurilishini qanchalik o‘zlashtirganliklari bilangina emas, balki ularning o‘z fikrlarini adabiy tilning boy ifoda vositalarida o‘rnli va to‘g‘ri foydalangan holda, og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri ifodalashlari hamda muloqot madaniyati doirasida har bir nazariy qonun-qoida yuzasidan o‘z shaxsiy mulohazalarini bayon qila olishlari bilan belgilanmog‘i lozim.

“O‘zbek tilida uslubiyot” mavzusini o‘rganish orqali o‘quvchilarda to‘g‘ri nutq tuzish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ushbu tadqiqot mavzusi ham ushbu tushunchalar yuzasidan puxta bilim berish va ushbu orqali o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, muloqot madaniyatini hamda ijodiy matn yaratish darajasi, so‘z va gap ustida ishlash malakalarini shakllantirish masalalariga bag‘ishlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasida ta‘kidlanganidek, ta‘lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri ta‘limning uzluksizligi va izchilligi bo‘lib, ona tili bo‘yicha olib boriladigan mashg‘ulotlar uzluksizlik tamoyili asosida tashkil etilsa, uning samarasi yuqori bo‘lishi shubhasizdir. Uslubshunoslik bo‘limida nutq uslublarini o‘rgatishda ham uzluksizlik ta‘minlanmog‘i darkor. Bunda quyi sinflarda olingan bilim, hosil qilingan ko‘nikma va malakalarga suyanish, keyingi bosqichlarda tadrijiy ravishda takomillashtirgan holda yangi bilimlar, ko‘nikma va malakalar ustida ishlash orqali kuzatilgan natijaga erishish, shu jarayonda yangi pedagogik texnologiyani, axborot texnologiyasini joriy etish, o‘quvchilarda muloqot madaniyatini, xususan, muomala odobini shakllantirish mumkin. Shubha yo‘qki, bu aspektdagi ishlar o‘quvchilarning qiziqishlarini oshiradi, mustaqil fikr yuritish qobiliyatini rivojlantiradi.

**Muammoning ishlanganlik darajasi.** Turkiy tilda so'zlashuvchi urug'-qabilalar ittifoqi va ular tilining shakllanishi juda qadim zamonlardan boshlanadi.<sup>1</sup> Uning asosiy fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari negizi uzoq vaqtlar davomida shakllangan va rivojlanib kelgan bo'lib, bu haqda Sibirda, Mo'g'ulistonda, Qozog'istonda va O'rta Osiyoning turli joylarida topilgan qadimgi turkiy yozma yodgorliklar juda yaxshi tasavvur beradi.<sup>2</sup> Masalan, Shimoliy Mo'g'uliston hududidan o'tgan **Yenisey va O'rxun** daryolari bo'ylaridan topilgan yozuv. Buni **O'rxun-Yenisey** yozuvlari deb yuritishadi. «Bu yozuv yodgorliklarini hozirgi turk xalqlaridan birortasi yaratgan deb aytish to'g'ri chiqmaydi, chunki u zamonlarda urug'-qabilachilik davrini boshidan kechirayotgan **turk xalqlari** (VI-VIII asrlar) hali mustaqil xalq sifatida uyushmagan edilar. Bu yodgorliklarning tili haqida ham xuddi shuni aytish kerak bo'ladi. Bu yozuv yodgorliklarini yaratishda so'nggi taraqqiyot davrlarida turk xalqlarining tashkil topishida ishtirok etgan juda ko'p turli-tuman qabila va urug'lar qatnashgan, desak haqiqatga yaqinroq bo'ladi».<sup>3</sup>

Tadqiqot va kuzatishlarga ko'ra, bizgacha yetib kelgan O'rxun – Yenisey (Enasoy) va shuning singari boshqa ko'pgina yozma yodgorliklar barcha turkiy urug'-qabilalarning hayoti va faoliyatida xizmat qilgan qadimgi turkiy tilning boy hamda har jihatdan taraqqiy etganligidan guvohlik beradi. Shuningdek, turkiy xalqlar adabiy tilining ilk taraqqiyot davri va uning uslubiy tur-xillarini aniqlashda ham bu yodgorliklarning ahamiyati katta ekanligini alohida ta'kidlash joizdir.

O'zbek tili uslubiyati fani bevosita rus tili stilistikasi ta'sirida, uning qolip va modellari zaminida vujudga keldi va rivojlana boshladi, desak xato bo'lmas.

Jahon tilshunosligida, shu jumladan rus tilshunosligida ham stilistika tilning mohiyati va vazifalarini chuqur tahlil qilish natijasi o'laroq fan sifatida ajralib chiqdi va rivojlanish yo'liga kirib oldi. V.Gumboldt, I.A. Boduen de Kurtene, F. Sossyur, G.O. Vinokur, A.P. Yakubinskiy, Ya. Gort, V.V. Vinogradov, N.Yu. Shvedova kabilar nutqni o'rganishga katta e'tibor berdilar. Va nihoyat, lingvistik

<sup>1</sup> Языки народов, том 2. Тюркские языки, - Москва: 1966, с. 14-15.

<sup>2</sup> Shomaqsudov A. SH. O'zbek tili va uning stilistik turlarining tarixiy ildizlari masalasiga doir, O'zbek tili stilistikasi masalalari, Ilmiy asarlar to'plami, 486. – Toshkent, 1975, 3-bet.

<sup>3</sup> Ўқиш китоби. Эски ўзбек ёзуви намуналари., - Тошкент: Ўз Давлат ўқув педагогик нашриёти, 1960, с.6.

stilistika shakllandi. Nutq hodisalari chuqur o'rganila borgan sayin ilmiy tadqiqot obyektiga aylana boshladi.

80- yillarda o'zbek tilshunosligida muhim muammolardan biri sifatida ko'tarilib chiqilgan so'zlashuv nutqi muammosi qator tilshunoslar, jumladan, professor B.O'rinboyev, E.Begmatov, A.Shomaqsudov, dotsent M.Tursunpo'latov, S.Usmonov va boshqalar tomonidan bu boradagi qator muammolarning ba'zilari o'z yechimini topdi, ba'zilari o'z yechimini hamon topgani yo'q. Ana shunday muammolardan biri so'zlashuv nutqi o'ziga xos nutqiy sistema ekanligidir. So'zlashuv nutqi yuzasidan qator rus tilshunoslari O.B.Sirotnina, V.I.Sobinnikova, A.Zemskaya, O.A.Yakubovskiy, V.G.Kostamorov, T.Q. Vinokurlar, o'zbek tilshunoslaridan B.O'rinboyev, E.Begmatov, S.M.Xoldorova, A.Hazratqulov, M.To'rsunpo'latov kabilar tomonidan so'zlashuv nutqi sintaksisi, so'zlashuv nutqi leksikasi, so'zlashuv nutqi dialogik nutq ekanligi, A.Shomaqsudov tomonidan so'zlashuv nutqi uslubi o'rganilgan.

#### **Tadqiqotning maqsadi:**

- O'zbek tilida nutq va nutq uslublarning o'rnini xususida so'z yuritish;
- Nutqning uslubiy xususiyatlarini tadqiq etish;
- Nutq uslublarni qay darajada ta'lim jarayoniga tatbiq etilganini o'rganish;
- O'quvchilar nutqini o'stirishning yangi usullarni topish.

**Tadqiqot obyekti.** Ona tili mashg'ulotlarida nutq uslublarni o'rgatish mazmuni va metodlari, o'quvchilarning nutqi, muomala odobi.

**Tadqiqot predmeti** O'quvchilariga nutq uslublari turlarini o'rgatish jarayoni.

Muammoni nazariy jihatdan tahlil qilish, uzluksiz ta'lim jarayonida o'quvchilarga nutq uslublarni o'rgatish hamda tadqiqotning maqsadidan kelib chiqqan holda **quyidagi ilmiy farazlar** ilgari suriladi: agar nutq uslublarni o'rgatishda o'quvchilarga grammatik tushunchalarning belgilari to'liq anglatilsa, chuqur va puxta bilim berish choralari ko'rilsa, ayni paytda ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirish rejali amalga oshirilsa, mustaqil ishlash, izlanish va

fikrlash malakalarini shakllantirishga yordam beradigan ta'lim mazmuni va metodidan foydalanilsa, axborot texnologiyalari jalb etilsa, bir so'z bilan aytganda, mavjud imkoniyatlar to'la ishga solinsa, o'quvchilarning nutq uslublari yuzasidan talab darajasida bilim olishlariga hamda ijodiy matn yaratish jarayonida amaliy qo'llash malakalarini hosil qilishga, bunda muloqot madaniyati, xususan, muomala odobini singdirishga erishiladi; so'z va gap ustida ishlash malakalari shakllanadi; mustaqil fikrlash, ishlash va izlanish ko'nikmalari kamol topadi; og'zaki va yozma nutqi hamda tafakkuri o'sadi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilar bilan tavsiflanadi: o'zbek tilshunosligining so'ngi yutuqlari asosida metodik maqsadlarda nutq uslublarning nazariy talqini amalga oshiriladi, o'zbek tili o'qitish metodikasida ilk bor uzluksiz ta'lim tizimida nutq uslublarni o'rgatishning yangilangan mazmuni va metodlari asoslandi; mavzu yuzasidan o'quvchilarga chuqur va puxta bilim beradigan samarali usullar aniqlandi; o'rganilayotgan til hodisalarining amaliy uslubiyat, matn talabi, muloqot madaniyati, muomala odobi bilan bog'liq jihatlari ajratildi; so'z va gap ustida ishlash malakalarini shakllantirishda o'quvchilar nutqini o'stirishga qaratilgan topshiriqlar ishlab chiqildi.

**Tadqiqot maqsadidan** kelib chiqib quyidagi **vazifalarni** bajarishni ko'zda tutdik:

1. O'zbek tilshunosligining so'ngi yutuqlariga asoslangan holda nutq uslublari turlarini talqin qilish.
2. Ilmiy-nazariy adabiyotlarda nutq uslublari talqinining nazariyadagi holati, metodik adabiyotlarda masalaning qay darajada yoritilganligini o'rganish, amaldagi "Ona tili" dastur va darsliklarini shu nuqtai nazardan tahlil qilish.
3. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarning nutqi va tafakkurini o'stirishda, mustaqil ishlash va fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga, og'zaki va yozma nutqini o'stirishga, muloqot madaniyati, xususan, muomala odobini singdirishga yordam beradigan eng samarali usullarni aniqlash.

O'zbekiston Konstitusiyasi, respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va madaniy taraqqiyotini belgilovchi davlat hujjatlari, O'zbekiston

Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni, o‘zbek maktablarida ona tili ta’limi Konsepsiyasi, taniqli filolog, pedagog va metodist olimlarning ona tili ta’limining mazmunini yangilash, uni o‘qitishning samaradorligini oshirish to’g’risidagi ilmiy-metodik asarlari **tadqiqotimizning metodologik asosini** tashkil etadi.

Lingvistik, didaktik va metodik adabiyotlar tahlili; ilg‘or ish tajribalarni o‘rganish va umumlashtirish; ona tili darslarini kuzatish va tahlil qilish **tadqiqotimiz metodlarini** tashkil qiladi.

**Tadqiqotning ilmiy-nazariy ahamiyati** quyidagilardan iborat: Ta’lim jaraniyoda ona tili darslarida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini oshiradigan, ijodiy matn yaratishga doir bilim hamda amaliy malakalarini shakllantiradigan, nutq madaniyatini ko‘zlagan holda og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishga xizmat qiladigan eng samarali ta’lim mazmuni va usullar tizimi belgilab berildi, ular yuzasidan bajariladigan topshiriqlarning turlari ko‘rsatildi.

**Ishning amaliy ahamiyati** shundan iboratki, nutq uslublarini o‘qitishda qo‘llaniladigan eng samarali usullar ko‘rsatildi, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini, og‘zaki va yozma nutqini, tafakkurini o‘stirish, muloqot madaniyatini hosil qilish, mustaqil ishlash, izlanish, fikrlash hamda so‘z va gap ustida ishlash malakalarini shakllantirishga xizmat qiladigan ijodiy-amaliy topshiriqlar ishlab chiqildi. Tavsiya etilgan usullardan ona tili o‘qituvchilari foydalanishlari mumkin.

**Ishning tuzulishi.** Ish kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning hajmi 71 sahifani tashkil qiladi.



## I BOB. TO‘G‘RI NUTQ TUZISHDA USLUBIYOTNING O‘RNI

### 1.1. Grammatik to‘g‘rilik to‘g‘ri nutq tuzish asosi sifatida

Insonning ma’naviy kamolotga erishuvda, jamiyatning madaniy — ma’rifiy rivojida ona tilining o‘rni favqulodda muhimdir. Til milliy ma’naviyat, ma’rifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas ko‘zgidir. Hadisi shariflarda "Kishining zebu ziynati, go‘zalligi uning tilidadir" deyiladi. Qadim — qadim zamonlardan beri har bir millat, har bir qavm o‘z tiliga buyuk hurmat bilan qaraydi. Bu tilning soxir ohanglari og‘ushida erimoqdan adoqsiz xuzur tuyadi. Bu tilga timsol topmaslikdan taskin topadi. Bu nodir boylikni dunyolarga bermaslikka hozir turadi. Chunki til millat degan birlikning tamal toshi, u boy berilsa, millat ham boy beriladi.

Bosh maqsadi Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi bo‘lmish milliy g‘oyamizning kurashchanligini ta’minlashda mukammal ma’naviyat va ma’rifat hal qiluvchi omil bo‘lib, ona tiliga muntazam muhabbat, davlat tiliga barqaror ehtirom ana shu omilni shakllantiradi, unga kuch beradi, ko‘lam baxsh etadi. Shuning uchun ham milliy g‘oya targ‘ibida "millatning o‘lmas ruxi bo‘lgan ona tiliga muxabbat"<sup>4</sup> tarbiyasi muxim o‘rin tutadi.

Mamlakatimizda ma’naviyat jabhasida olib borilayotgan benihoya keng qamrovli islohotlarda til muammolari, xususan, ona tiliga, davlat tiliga e’tibor masalalariga alohida diqqat qilinayotganligi bejiz emas. Respublikamizning "Davlat tili haqida"gi, "Ta’lim to‘g‘risda"gi Qonunlari, "Kadrlar tayyorlash bo‘yicha milliy dastur" va boshqa juda ko‘plab hujjatlarda bu yo‘nalishdagi ishlarning asosiy jihatlari ko‘rsatib berilgan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ham "...intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik ekanini, nodir talent egalarini tarbiyalab kamolga yetkazish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo‘q"<sup>5</sup>ligini qayd etib, "biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni

<sup>4</sup>Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent: O‘zbekiston, 2000, 49-bet.

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 22-dekabr 2017-yil. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B.72.

o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”<sup>6</sup>, – deya ta’kidlagan edilar. Nutqning to‘g‘riligi, ya’ni uning adabiy til me’yorlari (talaffuz, so‘z yasalishi, leksik, morfologik, sintaktik, uslubiy me’yorlar)ga qat’iy mosligi madaniy nutqning asosiy, markaziy sifatidir. Ammo har qanday to‘g‘ri nutq madaniy bo‘lavermaydi, u mazkur boshqa kommunikativ sifatlarga ham ega bo‘lgandagina chin ma’nodagi madaniy nutq maqomini olishi mumkin. Bu o‘rinda yirik rus tilshunosi S.I.Ojegovning quyidagi fikri diqqatga sazovor: "Yuksak nutq madaniyati — bu o‘z fikrlarini til vositalari orqali to‘g‘ri, aniq va ta’sirchan qilib ifodalay olishdir. To‘g‘ri nutq deb hozirgi adabiy til me’yorlariga rioya qilib tuzilgan nutqqa aytiladi. Til me’yorlari — bu ijtimoiy — nutqiy amaliyot (badiiy adabiyot, o‘qimishli kishilar nutqi, sahna nutqi, radio va sh.k.) da umum tomonidan qabul qilingan talaffuz, grammatika va so‘z qo‘llash qoidalaridir. Ammo yuksak nutq madaniyati faqatgina til me’yorlariga amal qilishdangina iborat emas. U ayni paytda o‘z fikrini ifodalashning nafaqat aniq vositasini, balki eng ommabop (ya’ni eng ta’sirchan) va jo‘yali (ya’ni ayni vaziyat uchun eng muvofiq va, demakki, uslub nuqtai nazaridan o‘rniga tushgan) vositalarini ham topa olish mahoratini ham o‘z ichiga oladi."<sup>7</sup> Nutqning to‘g‘riligi uning markaziy sifati bo‘lsa-da, nutqiy madaniyatni mazkur sifatning bir o‘zi bilan ta’minlash aslo mumkin emas. Shubhasizki, har qanday to‘g‘ri nutq ham aniq yoki jo‘yali, sof yoki boy bo‘lmaydi, umuman, yetarli ta’sirchanlik quvvatiga sohib bo‘la olmaydi. Shuning uchun ham nutq madaniyati muammolarini tadqiq etish bilan shug‘ullangan bir qator tilshunoslar nutq madaniyatining ikki bosqichini farqlash maqsadga muvofiqligini ta’kidlaydilar. Masalan, L.I.Skvorsov umumiy "nutq madaniyati" tushunchasini adabiy tilni egallash va undan foydalanishning ikki bosqichini ifodalovchi "nutqning to‘g‘riligi" va "nutq madaniyati" tarzida ikki qismga ajratish lozimligini ta’kidlarkan, ularga shunday izoh beradi: "Birinchi, quyi bosqich nutqning to‘g‘riligidir. To‘g‘rilik haqida biz adabiy nutq va uning me’yorlarini egallash jarayonida gapiramiz. Variantlarni nutqning to‘g‘riligi

<sup>6</sup> Mirziyoyev Sh.M. - "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" ma’ruzasi // Kuch adolatda gazetasi. №: 47. 2016 yil. 8 dekabr. – B.3.

<sup>7</sup> Ojegov S.I. Leksikologiya. Leksikografiya. Kultura rechi. Moskva: Vysshaya shkola, 1974. S, 287-288.

sathidagi baholash: to'g'ri — noto'g'ri, ruscha ifoda — ruscha ifoda emas va sh.k... Nutqning to'g'riligi mohiyatan maktab ta'limining predmetidir. O'rta maktab dasturi umumiy tarzda to'g'ri nutq (ko'proq grammatika sohasida) malakasini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Adabiy tilni egallashning ikkinchi, yuqori bosqichi haqiqiy ma'nodagi nutq madaniyatidir. Nutq madaniyati haqida adabiy tilga sohiblik sharoitida, to'g'rilik (ya'ni adabiy me'yorlarni bilish) sharoitida gapirish mumkin. Variantlarni nutq madaniyati sathidagi baholash boshqacha: yaxshiroq — yomonroq, aniqroq, jo'yaliroq..."<sup>8</sup> Tabiiyki, nutq madaniyatining birinchi bosqichisiz ikkinchi bosqichi ham mavjud bo'la olmaydi, to'g'rilik sifatiga ega bo'lmagan nutq, ya'ni noto'g'ri nutqda boshqa biron kommunikativ sifat bo'lishi mantiqdan tashqaridir.

Nutqning to'g'riligi uning adabiy til me'yorlariga to'la mosligi sifatida talqin etilar ekan, bu me'yorlarning ikki xilini farqlash o'rinlidir. Tilshunoslikda adabiy til me'yorlarining kuchli va kuchsiz tiplari ajratib ko'rsatiladi.<sup>9</sup> Nutq madaniyatining birinchi bosqichida, ya'ni to'g'ri nutq tuzish malakasini shakllantirishda asosiy diqqat-e'tibor adabiy tilning kuchsiz me'yorlariga qaratilishi maqsadga muvofiq, chunki nutq amaliyotida kuchli me'yorlar deyarli buzilmaydi, kuchsiz me'yorlar esa nutq tuzuvchining ikkilanishiga va demak, nutq to'g'riligining buzilishiga ko'proq yo'l ochadi. Masalan, ega va kesimning shaxs va sonda moslashuvi kuchli sintaktik me'yor bo'lib, u bolalikdanoq kishi ongidan mustahkam o'rin olgan. Shuning uchun bu me'yorni qo'llashda biron kishi adashib, Men kelding shaklida jumla tuzmaydi. Qaratqich va tushum kelishiklarining qo'llanishi bilan bog'liq me'yorlar esa kuchsiz me'yorlarga misol bo'la oladi. Shuning uchun bu me'yorlar chuqur o'rgatilmasa, odam adashib, -ning o'rnida -ni qo'shimchasini ishlatib, meni do'stim tarzida noto'g'ri birikma tuzishi mumkin.

Nutqning grammatik jihatdan to'g'riligi nutq madaniyatida ayricha o'rin tutadi. To'g'rilik degan kommunikativ sifat uchun grammatik to'g'rilik asoslarning

<sup>8</sup> Skvorsov L.I. Teoreticheskie osnovim kulturi rechi. Moskva: Nauka, 1980. S.95-96.

<sup>9</sup> Golovin B.N. Osnovy kulturni rechi. Moskva: Vmsshaya shkola, 1988. S.12.

asosidir. Grammatik to'g'rilik esa nutqda grammatik me'yorlarga qat'iy amal qilish orqali namoyon bo'ladi.

O'zbek adabiy tilining grammatikasi, ya'ni morfologiya va sintaksisi tilshunoslikda nazariy jihatdan anchayin batafsil tadqiq etilgan, tilning morfologik va sintaktik qurilishiga xos qonuniyatlar umumlashtirilgan, deyarli barcha holatlar qoidalashtirilgan. Ular tilshunosligimizdagi ko'plab ilmiy tadqiqotlar, normativ grammatikalar, o'zbek tili bo'yicha o'rta va oliy maktablar uchun yaratilgan darsliklar, o'quv qo'llanmalarida o'z aksini topgan. Ana shu asosda o'zbek tilida so'z shakllari, qo'shimchalarning qo'llanishi, so'zlarning qo'shilishi, so'z birikmalari va gap tuzilishi bilan bog'liq qoidalarining jami grammatik me'yorlar sifatida e'tirof etilgan.

Tabiiyki, grammatik me'yorlar morfologik va sintaktik me'yorlardan tarkib topadi. So'zlarning morfologik shakli va ularning nutqda qo'llanishini tartibga soluvchi qoidalar morfologik me'yorlar, so'zlarning birikish yo'llari, so'z birikmasi va gap tuzilishi bilan bog'liq qoidalar esa sintaktik me'yorlar deb yuritiladi.

Taassufki, adabiy morfologik me'yorlarning nutqda buzilishi tez-tez uchray turadi. Bu me'yorlarning buzilishidagi eng keng tarqalgan holatlardan biri qaratqich va tushum kelishiklarini qorishtirishdir. Aslida bu kelishiklarni qo'llash bilan bog'liq qoida kuchli me'yor bo'lishi kerak edi, chunki tilimiz tabiatiga ko'ra qaratqich kelishigi keng ma'noda ot turkumidagi so'zlarni bir-biri bilan bog'lashga (daraxtning bargi, O'zbekistonning poytaxti kabi), tushum kelishigi esa keng ma'noda ot bilan fe'lni bog'lashga (kitobni o'qimoq, Vatanni sevmoq kabi) xizmat qiladi. Ammo bu me'yor shevalar va og'zaki nutq ta'sirida kuchsizlangan. Aytish mumkinki, xozirgi kunda o'zbek tilining etakchi shevalarida qaratqich kelishigi tushum qelishigi bilan aynan bir xil shaklda qo'llanadi (daraxtni bargi, kitobni o'qimoq kabi). Taniqli tilshunos A.Hojiyev o'tgan asr boshlaridagi bosma manbalar tilini o'rganar ekan, -ning o'rnida -ni qo'shimchasini qo'llash ancha keng tarqalganini aytadi. Hatto o'tgan asrning 50-yillarida shevalarga suyangan holda -ni qo'shimchasi bilan ifodalanadigan qaratqich-tushum kelishigini me'yorlashtirish

taklifi ham o'rtaga tashlangan. Zahmatkash tilshunos A.Ma'rufov "Bu ikki shaklni birlashtirish sintaksisga ortiqcha yuk bo'ladi, fikrni to'g'ri anglashga halaqit beradi, uslub ravonligini buzadi" degan haqli fikrni bildirgan.<sup>10</sup> A.Hojiyevning ko'rsatishicha, o'sha asr boshlarida og'zaki nutq odatidan qochish adabiy tilga olib keladi qabilida fikr qiluvchi ba'zilar xatto tushum kelishigi o'rnida qaratqich kelishigi shaklini qo'llashga ham uringanlar va buni ziyolilik belgisi tarzida taqdim etmoqchi bo'lganlar. O'sha davr voqeligini chuqur o'rgangan maxoratli adib Asqad Muxtor "Opa-singillar" romanida salbiy obrazlardan biri Naimiyning ana shunday chiranchoqligini uning quyidagi nutqi (-ni o'rniga o'rinsiz ravishda -ning qo'shimchasini ishlatadi) bilan ko'rsatadi: Mushtipar volidaiy muhtaramalar! ...Tobakay oila dersiz, tobakay bola-chaqa dersiz! Yoppasiga paranjining tashlab, artelga ishga borishning talab qilaman... Bola-chaqangizningboqib olishga iqtidori etadi, nodon erlaringizning jilovlab qo'yishga kuchi etadi!.. Unday yaramas oilaning tashlab ketmog'ingiz lozim... Bolalaringizning yetimxonalarga oladi. Bu kabi munozara — mulohazalar o'zbek tili tabiatiga zid bo'lgani uchun, tabiiy, u davrlarda qolib ketdi. Ammo har holda, sheva va og'zaki nutqdagi qaratqich o'rnida tushum kelishigi shaklini qo'llash odati mazkur morfologik me'yorni kuchsiz holatga tushirgan. Shuning uchun bu me'yorni so'zlovchi ongida barqarorlashtirish bo'yicha doimiy mashq lozim.

Qaratqich va tushum kelishiklari nutqda belgili (qo'shimcha bilan) va belgisiz (qo'shimchasiz) qo'llana oladi, ammo bunda ham tegishli me'yorlar mavjud. Zotan, bu kelishiklar belgili qo'llanganda, konkretlik, ta'kidlash ma'nolari (kitobning sahifasi, kitobni o'qimoq; gap aniq, konkret kitob haqida), belgisiz qo'llanganda esa umumiylik ma'nolari (kitob sahifasi, kitob o'qimoq; gap umuman kitob haqida) reallashadi. Masalan, qaratqich kelishigidagi so'z bilan qaralmish o'rtasida boshqa so'z bo'lsa, qaratqich kelishigining, albatta, belgili qo'llanishi me'yorlashgan. Shuning uchun kitob sahifasi, maktab o'quvchisi deyish mumkin, ammo ular orasiga, aytaylik, sarg'aygan, a 'lochi so'zlari kiritilsa,

---

<sup>10</sup> Ma'rufov A. O'zbek adabiy tilidagi ikki kelishik formasi haqida. — O'zbek tili va adabiyoti masalalari. 1958, N1, 45 —bet.

kitob sarraygan sahifasi, maktab a'lochi o'quvchisi deyish me'yorning buzilishiga olib keladi. Birikma grammatik to'g'ri bo'lishi uchun, albatta, kitobning sarg'aygan sahifasi, maktabning a'lochi o'quvchisi deyish shart. Shunga qaramasdan, ayrim kishilar nutqida ba'zan bu me'yorning buzilishi kuzatiladi.

Ko'pincha shunga yaqin yana bir xatolik ko'zga tashlanadi. Mana bu jumlaning ko'raylik: Unda (muloqotda) viloyatdagi kasb-hunar kollejlarning ma'naviyat va ma'rifat masalalari bo'yicha direktor o'rinbosarlari ishtirok etishdi ("O'zbekiston ovozi", 2006 yil 29 iyun). Umuman, direktor o'rinbosari yoki direktorning o'rinbosari deyish mumkin. Ammo kollejning direktor o'rinbosari deyish to'g'ri emas, chunki o'rinbosari so'z shaklidagi -ng egalik qo'shimchasi direktorga qarashlilikni ifodalaydi, bu qo'shimcha kollejning so'zi bilan aloqalanmaydi. Shuning uchun kollej direktori o'rinbosari yoki kollej direktorining o'rinbosari deyilsa, grammatik va mantiq jihatidan to'g'ri bo'ladi. Agar o'rinbosari so'zidan oldin yana boshqa sifatlovchi qo'yiladigan bo'lsa, yuqoridagi me'yorga muvofiq, qaratqich kelishigi belgili qo'llanadi, ya'ni kollej direktorining ma'naviyat va ma'rifat masalalari bo'yicha o'rinbosari, kollej direktorining moliya masalalari bo'yicha o'rinbosari kabi. Keltirilgan gap grammatik to'g'ri bo'lishi uchun quyidagicha taxrir etilishi lozim: Unda (muloqotda) viloyatdagi kasb-hunar kollejlari direktorlarining ma'naviyat va ma'rifat masalalari bo'yicha o'rinbosarlari ishtirok etishdi.

Har bir kelishikning qo'llanishi bilan bog'liq aniq adabiy me'yorlar bor, har bir kelishik alohida — alohida ma'nova vazifa uchun xizmat qiladi, lekin bu me'yorlarga zid o'laroq nutqda bir kelishikning o'rnida boshqasini qo'llash holatlari uchraydi. Masalan, Samarqand, Buxoro, SHaxrisabz kabi shevalar vakillari nutqida o'rin-payt kelishigi o'rnida jo'nalish kelishigini ishlatish adabiy nutqning to'g'riligiga jiddiy halaqit beradi. Toshkentga o'qimoq, dalaga ishlamoq, poezdga kelmoq, kabi holatlar me'yorning buzilishidir. Senga bitta gapim bor, hali poezdga aytaman deyilsa, boshqa sheva vakillari tomonidan Senga bitta gapim bor, hali poezdda aytaman tarzida emas, balki "Senga aytadigan gapimni senga emas, poezdga aytaman" tarzida kulgili bir mazmunda anglanishi mumkin.

Tushum va chiqish kelishiklarining ma'nosi bilan bog'liq ushbu ikki holatni qiyoslang: uzumni emoq — uzumdan emoq. Tushum kelishigi qo'llanganda, "uzumning hammasini emoq", chiqish kelishigi qo'llanganda esa "uzumning bir qismini emoq" ma'nosi ifodalanadi. Buni bilmaslik, shubxasizki, grammatik va mazmuniy jihatdan mana bunday xato jumla tuzishga olib keladi: Tilni yoray deydi-ya, tilni, - deb mulla uzumdan paqqos tushirdi (S.Ravshanov). Bu o'rinda chiqish kelishigini emas, tushum kelishigini qo'llash shart edi, chunki paqqos tushirmok, "bitta ham qoldirmay, oxirigacha emoq" degani va shuning uchun ham u tushum kelishigidagi so'zni talab qiladi.

Fe'l nisbatlarining qo'llanishida ham ko'pincha morfologik me'yorlarning buzilishini ko'rish mumkin. Bu, ayniqsa, fe'lning analitik shakllari (yetakchi fe'l + ko'makchi fe'l)da ko'zga tashlanadi. Yirik filolog A.Rustamov bunday holatlarga quyidagicha aniqlik kiritadi: "Bu -n qo'shimchasini ishlatishdagi ayb uni keraksiz o'rinlarda ham iste'mol qilishdan iborat. Boshlamoq, kelmoq kabi fe'llar ko'makchi bo'lib kelganda majhul harakatni bildirish uchun majhullik qo'shimchasi asosiy fe'lga qo'shib, ko'makchi fe'lga, jumladan, boshlamoq yoki kelmoq fe'lga qo'shilmaydi. Binobarin, men eshitgan va boshqalar ham yana eshitishi yoki o'qib qolishi mumkin bo'lgan quyidagi gaplardagi -n qo'shimchasi til nuqtai nazaridan ortiqchadir. 1. Hayot ildizi ekila boshlandi. 2. Cho'llar o'zlashtira boshlandi. 3. Qovoq urug'i qadimdan qo'llanib kelingan. 4. Paxta terila boshlandi. To'g'risi Hayot ildizi ekila boshlandi emas, ekila boshladi bo'ladi. Cho'llar o'zlashtira boshlandi emas, o'zlashtirila boshladi deyiladi. Qovoq urug'i qadimdan qo'llanib kelingan emas, qo'llanib kelgan deyilishi kerak. Paxta terila boshlandi emas, terila boshladi deyish lozim."<sup>11</sup>

So'z turkumlarining barchasidagi grammatik kategoriyalarning adabiy tilda qo'llanishini tartibga soladigan juda ko'plab morfologik me'yorlar mavjud.

---

<sup>11</sup> Rustamov A. So'z xususida so'z. Toshkent, 1987, 149 — 150 — betlar.

Soʻzlarning birikishi, soʻz birikmasi va gap tuzishda morfologik shakllangan soʻzlar, tabiiyki, material vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham sintaktik meʼyorlar ana shu morfologik meʼyorlarga ham suyanadi.

Sintaktik meʼyorlarning ham nutqda buzilishi holatlari kuzatiladi. Aytib oʻtilganidek, ega bilan kesimning shaxs-sonda moslashishi, asosan, kuchli meʼyor, ammo bunda ham baʼzi xususiy oʻrinlar borki, ular nutq tuzuvchining ikkilanishiga sabab boʻladi. Masalan, ega va kesimning 3-shaxs koʻplik sonda moslashishini olib koʻraylik. Ega kesim bilan 3-shaxsda koʻplikda hamisha moslashishi shart emas, yaʼni ega shaxsni bildiradigan soʻz boʻlganda, kesim koʻplikda ham, birlikda ham kelaverishi mumkin: Oʻquvchilar maktabga keldilar. Oʻquvchilar maktabga keldi kabi. Lekin ega vazifasida jonivorlar yoki jonsiz narsalarni bildiruvchi soʻz kelganda, kesim, asosan, birlikda qoʻllanadi: Itlar vovulladilar emas, Itlar vovulladi; Gullar ochildilar emas, gullar ochildi kabi (badiiy nutqdagi alohida qoʻllashlar bundan mustasno, ular haqida keyinroq aytiladi). Shunga qaramasdan, ega jonsiz predmet yoki tushunchani bildiradigan soʻz boʻlganda ham, aytaylik, Barcha taʼlim muassasalari qishga yaxshi tayyorgarlik koʻrdilar qabilidagi (ruschadagi toʻliq moslashuvga taqlidan) sintaktik notoʻgʻri tuzilgan jummalarni koʻrish mumkin.

Mantiqiy koʻplik bilan grammatik koʻplikning farqiga bormaslik ham sintaktik meʼyorlarning buzilishiga olib keladi. Masalan, Isroil armiyasi, ushbu hududda harbiy texnikalarni koʻpaytirganlar gazetadagi gapida ega birlik sonda (Isroil armiyasi), kesim koʻplikda (koʻpaytirganlar). Buning sababi nutq tuzuvchi armiyani koʻplikda deb tasavvur qilgan. Aslida bu soʻz mantiqan koʻplikni bildiradi, yaʼni jamlovchi ot, lekin grammatik birlik sonda. Shuning uchun bunday gap grammatik jihatdan iotoʻgʻridir, toʻgʻrisi Isroil armiyasi ... koʻpaytirgan boʻlishi lozim.

Tilimizning grammatik meʼyoriga koʻra aniqlovchi predmetning aniq miqdorini bildirsa, predmetni bildirgan soʻz faqat birlik sonda qoʻllanadi: oʻnta kitob, yigirma nafar oʻquvchi, besh dona gul kabi, aniqlanmishlarga -lar koʻplik qoʻshimchasini qoʻshish grammatik xatodir. Lekin matbuotda, radio-



televideniya, og‘zaki nutqda ana shunday noto‘g‘ri qo‘llashlar ko‘p uchramoqda. Masalan: Hozir viloyatimizdagi 80 ta kasb-hunar kollejlarda 55 mingdan ziyod o‘quvchi ta‘lim olyapti (gazetadan).

Miqdor ifodalovchi so‘zlarni qo‘llashda keng tarqalgan yana bir nuqson shuki, taxminiy miqdorni umumlashtiruvchi "...dan ortiq", "...ga yaqin" shaklidagi konstruksiyalar tarkibidagi sonlar ko‘pincha noto‘g‘ri tanlanadi. O‘ndan, yigirmadan..., yuzdan..., mingdan ortiq yoki o‘nga, yigirmaga..., yuzga..., mingga yaqin kabi holatlarda grammatika ham, mantiq ham sog‘lom, chunki yaxlitlash, umumlashtirish aniq ko‘rinib turibdi. Lekin o‘n uchdan ortiq, o‘n to‘qqizga yaqin, ettidan ortiq, o‘ttiz oltiga yaqin kabi ifodalar mantiq u yoqda tursin, xatto grammatikaning ham kulgisini qistatishi tabiiy. Axir, "...dan ortiq", "...ga yaqin" bo‘lgandan keyin, ortadigan yoki yaqinlashadigan etalon-me‘yor muayyan yaxlit bir miqdor bo‘lishi shart-ku! Etti, to‘qqiz, o‘n uch, o‘n to‘qqiz va h.k.gacha sanagan odam davomini ham sanab qo‘ya qolmaydimi. Bu kabi nuqsonlar nutq tuzuvchining aqliy tanballigi bilan bog‘liqqa o‘xshaydi.

Sintaktik me‘yorlarning buzilishi tildagi gap modellari – struktur sxemalarini yaxshi tasavvur qilmaslik sababli ham voqe bo‘ladi. A.G‘ulomov shunday yozadi: "Gapning umumlashgan namunasi, maketi uning struktura sxemasini tashkil etadi. Bu sxema gapning formal — grammatik tomoni bo‘lib, u gap xosil qilish uchun zarur bo‘lgan minimum komponentlardan tashkil topadi: ega + kesim: Bola yugurdi; ega + kesim + bog‘lama: Karim ukali bo‘ladi. Gap sintaktik tugallangan konstruksiya bo‘lib, bunday sintaktik konstruksiyalar til birliklarining birikish qonunlari asosida shakllanadi."<sup>12</sup>

Aytish lozimki, gapning bunday namunaviy modellari har bir tilning o‘ziga xos va miqdori ham chegaralangan, 40-50 taning nari-berisida bo‘ladi. Nutq tuzuvchi tildagi bu modellardan o‘z kommunikativ maqsadiga uyg‘unini tanlaydi va uni turli variantlarda kengaytiradi, tildagi model asosida kerakli jumlaning tuzadi. Til degan sirli dunyoning sinoatlaridan biri ham shunda. Fransuz professori

---

<sup>12</sup> G‘ulomov A., Asqarov M. Ko‘rsatilgan asar, 36 —bet.

Murtazo Mamudyan shunday bir faktni keltiradi. Ko'pgina tilshunoslar nutqdagi jumlar (20 dan ortiq bo'lmagan so'zdan tarkib topgan) miqdori  $10^{30}$  dan  $10^{86}$  gacha bo'lgan son bilan o'lchanadi deb hisoblaydilar. Bir asr  $3 \times 10^9$  soniyadan iborat. Bir odam bir asr yashaydi va u har soniyada bittadan jumlani o'rganadi deb taxmin qilinsa, u butun umri davomida mazkur miqdordagi jumalarning juda ham oz qismini o'zlashtira oladi degan xulosa chiqadi. M.Mamudyan tilni o'zlashtirish va undan foydalanish jarayonlari mohiyatan benihoya tejamkor tamoyilda voqe bo'lishini, bu tejamkorlik til strukturasi bo'laklanishi bilan ta'minlanishini ta'kidlaydi.<sup>13</sup> Boshqacha qilib aytganda, nutqiy jumlar yaxlit o'rganilmaydi va o'zlashtirilmaydi, til bo'laklanadi, bu bo'laklar o'zaro munosabatga kiritiladi. Tilda ana shunday bo'laklar va ularning grammatik munosabati hosilasi sifatidagi gap modellari mavjud. Til o'rganuvchi aia shu bo'laklar va sanoqda gap modellari o'zlashtiradi, ularga suyanganda sanoqsiz individual jumlar tuzadi. Tildagi gap modellarining rang-barangligi nutqning to'g'riligi va ta'sirchanligini ta'minlashda nutq tuzuvchi uchun bitmas-tuganmas imkoniyatdir.

Ta'kidlash joizki, o'zbek tilining ham mutlaqo o'ziga xos gap mdellari bor. Ularda o'zbek adabiy tilining sintaktik, umuman, grammatik me'yorlari namoyon bo'ladi.

Masalan, rus tilida Mne desyat let tarzida jumla tuzish uchun asos bo'ladigai gap modeli mavjud, shuning uchun mazkur jumla grammatik to'g'ri. Ammo o'zbek tilida aynan bunday gap modeli yo'q, shuning uchun mazkur ruscha jumla Menga o'n yosh deb tarjima qilinsa, u aslo o'zbekcha bo'lmaydi. Ayni fikr ifodasi uchun o'zbek tilida boshqa modellar borki, unga muvofiq Mening yoshim o'nda yoki Men o'n yoshga kirdim tarzidagi jumla tuziladi. Rus tili yoki boshqa til gap modellariga ko'ra tuzilgan Menga o'n yosh kabi jumlar nutqning to'g'riligi sifatini mutlaqo yo'qqa chiqaradi.

Ma'lumki, so'z birikmasi, gap kabi sintaktik birliklar so'zlarning qo'shilishi natijasida hosil bo'ladi. So'zlarning bir-biri bilan qo'shib, so'z birikmasi va gaplarni yuzaga keltirishi uchun muayyan shartlar bajarilishi zarur. So'zlarning

<sup>13</sup> Мамудян М. Лингвистика. Москва: Прогресс, 1985, с.56

o‘zaro birikishida qat ‘iy qoidalar, qonuniyatlar bor, albatta. To‘g‘ri kelgan har qanday ikki so‘z bir-biri bilan bog‘lanavermaydi. O‘zaro birikadigan so‘zlar, avvalo, grammatik va semantik jihatdan mos bo‘lishi kerak.

Tilshunoslikda valentlik nomi bilan yuritiladigan bu zaruriyat, ayniqsa, sintaksisda, sintaktik me‘yorlarning shakllanishida favqulodda ahamiyatga molikdir. Masalan, bajarmoq va reja so‘zlarini olib ko‘raylik. Bu so‘zlar rejani bajarmoq yoki reja bajarilmoq tarzida bog‘lanib, so‘z birikmasini hosil qilishi mumkin. Chunki, birinchidan, ularda umumiy ma‘nouzvi-umumiy sema bor, ya ‘ni reja so‘zining ma‘nosi "biror ishni amalga oshirish uchun avvaldan belgilangan mo‘ljal", bajarmoq so‘zining ma‘nosi "biror ishni amalga oshirmoq" bo‘lib, "amalga oshirish" umumiy ma‘nouzvi ularni birikishi uchun imkon beradi. Ikkinchidan, grammatik jihatdan fe‘l talabiga muvofiq reja so‘zi tushum yoki bosh kelishikda kelgan. Demak, grammatik-semantik sharoit mavjud, birikma grammatik to‘g‘ri tuzilgan. Ammo mana bu gapga e‘tibor beraylik: ...Respublika aholisining qonga bo‘lgan ehtiyoji 32 foizga bajarilyapti, xolos ("O‘zbekiston ovozi", 2006 yil 15 iyun). Bu gap grammatik to‘g‘ri emas. Chunki ehtiyoj so‘zining ma‘nosida "amalga oshirish" degan ma‘nouzvi yo‘q, uning ma‘nosi "biror narsaga bo‘lgan talab, muhtojlik"dir. Mazmunan bog‘lana olmagan so‘zlarning grammatik bog‘lanishi haqida gapirib bo‘lmaydi. Bu so‘z, masalan, qondirmoq so‘zi bilan bog‘lanishi mumkin. Mazkur jumlaning grammatik to‘g‘ri shakli mana bunday bo‘ladi: ...Respublika aholisining qonga bo‘lgan ehtiyoji 32 foizga qondirilyapti, holos.

Ba‘zan quyidagicha grammatik xato jumla tuzish ham uchraydi: Qisqasi, ushbu anjuman haqida gazetamizning keyingi sonlarida batafsil tanishishingiz mumkin ("Ma‘rifat", 1998 yil 28 mart). Jumladagi anjuman haqida tanishishingiz mumkin qo‘shilmasi so‘z birikmasi bo‘la olmagan, ya‘ni so‘zlar o‘zaro grammatik birika olmagan. Buning sababi tobelanish munosabati ifodasi uchun ko‘makchining noto‘g‘ri tanlanganligidadir. Tanishmoq fe‘lining kuchli sintaktik valentligiga ko‘ra bunday holatlarda haqida ko‘makchisi emas, balki bilan ko‘makchisi qo‘llanishi shart. Mazkur gap Qisqasi, ushbu anjuman tafsilotlari bilan

gazetamizning keyingi sonlarida batafsil tanishishingiz mumkin tarzida taxrir qilinsa, grammatik to'g'ri bo'ladi. Yoki Tarbiyachi rasm ustida so'zlab beradi (S.Jo'raev, H.Qodirov) gapidagi ustida ko'makchisi ham grammatik xato qo'llangan, bu o'rinda haqida ko'makchisi joiz. Sintaktik valentliklarni etarli darajada bilmaslik oqibatida ko'makchilarning gapdagi o'rni bilan bog'liq ana shunday grammatik xatolar yuzaga chiqadi.

Bunday xatolar kelishiklar bilan bog'liq holda ham uchraydi. Masalan: Shundan keyin bolalardan avval yakka-yakka holda so'zlab berish taklif etiladi (S.Jo'rayev, H.Qodirov). Bu jumladagi bolalardan taklif etiladi qo'shilmasi grammatik xato, chunki bu hol taklif etilmoq fe'lining sintaktik valentligiga zid. Bu sintaktik birikma mazkur fe'ning valentligiga muvofiq bolalarga taklif etiladi shaklida bo'lsa, o'zbek adabiy tilining sintaktik me'yoriga mos hisoblanadi.

## **1.2. Uslubiy me'yorlar - nutq madaniyatining ajralmas bo'lagi sifatida**

Uslubiy me'yorlar nutq madaniyatining cho'qqisi hisoblanadi, bu me'yorlarni mukammal bilish va ulardan erkin foydalana olish madaniy nutq tarbiyasining pirovard maqsadlaridandir.

Til qanchalik rivojlangan bo'lsa, uning uslubiy me'yorlari ham shunchalik barqarorlashgan, ranginlashgan, boyigan bo'ladi. O'zbek tili dunyodagi eng qadimiy va taraqqiy etgan tillardan biri sifatida o'zining tarang uslubiy me'yorlariga ega.

Kishilarning ijtimoiy faoliyatini nutqsiz mutlaqo tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu faoliyatning turli sohalarida turli sharoitlarda, turli maqsadlar bilan nutq o'ziga xos tarzda ishtirok etadi. Aytaylik, tajribali o'qituvchining darsdagi nutqi va tanaffus paytida ikki-uch o'quvchi bilan suxbatidagi nutqi farqli bo'lishi tabiiy. Darsda ilmiy-ta'limiy maqsad asosiy bo'lsa, shunchaki suxbatda bu maqsad asosiy bo'lmaydi. Yoki rasmiy yozishmalarda qo'llanadigan nutq bilan ilmiy bayonda ishlatiladigan nutq ham aynan bir xil bo'lmaydi. Ijtimoiy faoliyatning ana shunday turli sohalarida qo'llanadigan xilma-xil nutq ko'rinishlari nutq uslublari deb yuritiladi.

Uzbek tilida quyidagi nutq uslublari farqlanadi: 1)so‘zlashuv uslubi, 2)rasmiy uslub, 3)ilmiy uslub, 4) publisistik uslub, 5) badiiy uslub.

Bu uslublarning har biriga xoslangan grammatik shakllar, so‘z, so‘z birikmasi, gap va intonasion vositalar mavjud. Ana shu xoslanish o‘zbek adabiy tili uslubiy me‘yorlarining asosidir. Aniqroq aytiladigan bo‘lsa, uslubiy me‘yorlar muayyan sohadagi aloqani ta‘minlaydigan nutqning mazmuni, maqsadi va vazifasi uchun mos keladigan til birliklarini tanlash qoidalaridir.

Har bir uslubning o‘ziga xos til xususiyatlarini, demakki, uslubiy me‘yorlarini bilmasdan turib tuzilgan har qanday nutq tom ma‘nodagi madaniy nutq bo‘la olmaydi.

Rasmiy ish qog‘ozlaridagi nutqning uslubiy o‘ziga xosliklarini olib ko‘raylik. Bu uslubda boshqa uslublardagidan farqli ravishda, masalan, ot yoki otlashgan so‘zlar ko‘p qo‘llanadi, xatto fe‘l bilan ifodalanuvchi harakat va holatlar uchun ham otga yaqin so‘z shakllari, ya‘ni harakat nomi shakllari tanlanadi: ...tayyorgarlikning borishi haqida, ...qarorning bajarilishi to‘g‘risida, ...yordam berish maqsadida, qabul qilishingizni so‘rayman kabi. Fe‘llarning qo‘llanishida ham o‘ziga xosliklar bor. Xususan, majhul nisbatdagi 3-shaxs buyruq-istak maylidagi yoki o‘tgan zamondagi fe‘l shakllari faol ishlatiladi: topshirilsin, tasdiqlansin, bajarilsin, bo‘shatilsin, tayinlansin; eshitildi, qaror qilindi, ko‘rib chiqildi, ko‘rsatib o‘tildi, ogohlantirildi kabi. Bu uslubdagi muxim jihatlardan yana biri shuki, ularda qoliplashgan, turg‘unlashgan so‘z birikmalari keng qo‘llanadi. Muxandislik psihologiyasi fani ma‘lumotlariga ko‘ra, qoliplashgan, doimiy yagona shaklga ega bo‘lgan so‘z tizimlari, iboralar boshqa so‘z birikmalariga nisbatan 8-10 marta tez idrok etilar ekan. Buning ustiga qoliplashgan so‘z birikmalari hujjatlarni tayyorlash va ulardan foydalanish jarayonlarini ham anchagina tezlashtirish imkonini beradi. Shuning uchun ham boshqa uslublarda salbiy xodisa sifatida baholanuvchi qoliplashgan sintaktik tuzilmalar, "shtamp"lar bu uslubning zaruriy unsuri deb qaraladi. Masalan, buyruq matnida quyidagicha qoliplashgan tuzilmalar qo‘llanadi: ...so‘m maosh bilan ...lavozimiga tayinlansin; ...o‘z xohishiga ko‘ra ...lavozimidan ozod qilinsin; ...boshqa ishga o‘tganligi munosabati

balan ...lavozimidan ozod qilinsin. Yoki xizmat yozishmalarida: Sizga ...ni ma'lum qilamiz; Sizga ...ni bildiramiz; Sizga ...ni eslatamiz va tegishli qaror qabul qilishni maqsadga muvofiq deb bilamiz; ...munosabati bilan...; ...qaroriga muvofiq ravishda; ...ga maktab ma'muriyati qarshi emas; ...ga maktab ma'muriyati kafolat beradi kabi<sup>14</sup>.

Albatta, tilda biron-bir uslubga xoslanmagan, uslub jihatidan neytral birliklar, ya'ni barcha uslublarda qo'llanadigan birliklar katta miqdorni tashkil etadi. Tabiiyki, ana shunday birliklar uslublarni yagona bir adabiy tilga birlashtiradi. Bir uslubga xoslangan til birligining boshqa uslubda qo'llanishi, tabiiyki, uslubiy me'yorning buzilishi hisoblanadi. Masalan, tashrif buyurmoq so'zidagi tashrifning lug'aviy ma'nosi "sharaflash" bo'lib, yaxlit so'z sifatida, asosan, rasmiy-publisistik uslubga xoslangan, unda ko'tarinkilik, tantanavorlik ta'kidi bor. Ana shuning uchun ham quyidagi jumlada uslubiy me'yor buzilgan: fojia yuz bergan joyga (samolyot halokatga uchragan) mamlakat prezidenti Ilhom Aliev tashrif buyurdi ("O'zbekiston ovozi", 2005 yil 27 dekabr). Bu uslub xabar mazmunidagi neytral uslub bo'lganligi uchun ham tashrif buyurmoq so'zi uchun tamomila yotdir.

Uslubiy me'yorlarni puxta egallash, ularga ziyraklik bilan muntazam amal qilish malakalariga ega bo'lmoq uchun ko'p o'qish, o'rganish, qisqasi, ko'p ter to'kishga to'g'ri keladi. Ayniqsa, o'qituvchi va asosiy quroli so'z bo'lgan boshqa kasb egalari bu me'yorlar bo'yicha malakalarini oshirish borasida muttasil shug'ullanishlari lozim.

Shuni ham aytmoq joizki, adabiy til me'yorlarining taraqqiy etib borishida til birliklarining variantlilik alohida ahamiyatga molik. Grammatikada ham, leksikada ham muayyan bir ma'no ifodasi uchun mo'ljallangan birdan ortiq birlik borligi ma'lum. Masalan, -day/-dek/-dak kabi variantli o'xshatish qo'shimchalari. Lug'at boyligimizda ham bunday variantlilik ancha-muncha bor: andaza — andoza, arava — aroba, baravar — barobar, kaptar — kabutar, shoyi — shohi kabi.

---

<sup>14</sup> Aminov M, Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000, 15—17 —betlar.

Bu variantlar juftliklaridagi birinchi soʻzlar neytral, ikkinchilari esa yuqori-kitobiy uslubga deyarli xoslanib boʻlgan. Buning hisobiga oʻzbek tilining adabiy meʼyorlari boyigan. Ana shunday variantli soʻzlardan foydalanganda, ulardagi uslubiy — farqlovchilik xususiyatini, albatta, hisobga olish zarur.

Nutqda adabiy til meʼyorlarining buzilishi, asosan, ikki sababga koʻra sodir boʻladi. Avvalo, soʻzlovchi mansub boʻlgan xududdagi sheva, shuningdek, oʻsha xududda muomalada boʻlgan boshqa sistemadagi tilning kuchli taʼsiri adabiy meʼyorlarning u yoki bu darajada buzilishiga olib kelishi mumkinki, bu omilni obyektiv sabab deb qarash maqsadga muvofiq. Masalan, buxorolik soʻzlovchi oʻz shevasi va tojik tilining taʼsirida talaffuz meʼyorlarini gʻayriixtiyoriy buzishi yoki tojikcha soʻz va grammatik shakllarni nutqqa olib kirishi mumkin. Adabiy til meʼyorlari buzilishining subʼektiv sababi esa bevosita nutq tuzuvchining oʻzi bilan aloqadordir, yaʼni tilni etarli darajada bilmaslik, til qoidalarini yaxshi egallamaganlik, nutq tuzishga eʼtiborsizlik, nutqiy koʻnikmalarning zaiflashganligi kabilar. Toʻgʻri nutq tuzish malakalarini shakllantirish boʻyicha ish olib borilar ekan, eng avvalo, ana shu subʼektiv sabablarni bartaraf etishga asosiy eʼtibor qaratilmogʻi kerak.

Adabiy til meʼyorlari buzilishining ikki turini farqlash lozim. Birinchisi shuki, soʻzlovchi yoki yozuvchi adabiy til meʼyorlarini bilmaganligi uchun bunday nuqsonga yoʻl qoʻyadi va u tuzgan nutq notoʻgʻri deb qaraladi. Ikkinchi holatda esa soʻzlovchi yoki yozuvchi adabiy til meʼyorlarini mukammal biladi, lekin turli, masalan, estetik maqsad bilan muayyan qonuniyatlar asosida bu meʼyorlarini buzadi va uning nutqi notoʻgʻri deb hisoblanmaydi. Ayni paytda bunday holatlar buzilish deb emas, balki adabiy meʼyordan chekinish tarzida baholanadi. Bu oʻrinda, tabiiyki, badiiy nutq nazarda tutilmoqda.

Adabiy til meʼyorlariga amal qilish badiiy nutqda oʻziga xos tarzda namoyon boʻladi. XX asr fransuz adabiyotining yirik vakillaridan biri Pol Valeri badiiy prozani piyoda yurishga (qadimgi yunonlar "piyoda soʻz" deydilar), poeziyani esa raqsga oʻxshatgan, tadqiqotchi N.I.Balashov bu oʻxshatishni esga olib, estetik maʼnoda badiiy prozada ham soʻzlar poeziyadagi kabi qimmatga

egaligini ta'kidlaydi. Aytish mumkinki, haqiqatan ham, badiiy nutqda so'zlar kutilmagan va ko'rilmagan, odatiy va g'ayriodatiy harakatlar, turfa oxanglar va ovozlari bilan raqsga tushadi. So'zlar, qo'shimchalar, xatto gaplar me'yorlar degan qat'iy qoidalarining chizgan chizig'idan osonlik va ustalik bilan chiqib ketadi. Shu tarzda nutq badiiy degan sifatga sazovor bo'ladi.

O'zbek adabiy tilining so'z yasaliishi me'yorlariga ko'ra -zor qo'shimchasi o'simlik, daraxt kabi narsalarni bildiradigan so'zlarga qo'shib, shu narsalar ko'p bo'ladigan joyni ifodalovchi otlarni yasaydi: lola+zor, olma+zor, beda+zor kabi. So'z ustalari bu me'yordan estetik maqsad bilan chekinib, o'smaydigan narsani bildirdigan so'zlardan ham bu qo'shimcha vositasida yangi so'z yasaydilar. Masalan, ulkan so'z san'atkori Abdulla Qodiriy "O'tgan kunlar" romanida qorong'uzor shaklida so'z yasagan: Uning (Otabekning) ko'ngil mevasi bu kungi qora voqea bilan qanday o'ralib, yo'qolib ketgan bo'lsa, bundagi daraxtlar ham o'z mevalarini kecha rangi bilan bo'yab, yashil yaproqlari ila ko'mgan edilar, ya'ni bunda o'sgan daraxtlar qanday meva beradir — ajratish qiyin edi. U shu qoronruzor bilap qo'shilishib ketgandek va qoronrulikning quchog'iga kira borgandek mevazorning ichkarisiga yura bordi. Bu go'zal va nafis tasvirdagi ko'ngil mevasi, qora voqea, kecha rangi, bundagi daraxtlar, o'z mevalari, qorong'ulikning quchog'i, mevazorning ichkarisi kabi birikmalar bilan qoronruzor so'zi favqulodda bir uyg'unlik xosil qilgan va Otabek qalbida "o'sgan, o'sayotgan" qorong'ulikning plastik tasviri jonlangan. Badiiy adabiyotda yozuvchi bunday yangi so'zlarni adabiy tilga kiritish uchun emas, balki aniq badiiy-estetik maqsad bilan yaratadi. Shuning uchun ham bunday so'zlar ayni maqsadga qay darajada xizmat qilganligi nuqtai nazaridan baholanadi

Grammatik me'yorlarni olib ko'raylik. O'zbek tilida, aytib o'tilganiday, ega shaxs bo'lmasa, kesim bilan 3-shaxs ko'plikda moslashmaydi, ya'ni kesim -lar qo'shimchasini olmaydi. Ammo badiiy nutqda bu me'yordan ham chekinish mumkin. A.Qodiriy "O'tgan kunlar"da bunday holatlarda ham -larni qo'llaydi, u shunday tasvir tarzini tanlaydiki, oddiygina -lar o'zgacha nozik ma'no ishvalarini ifoda etadi. Ayniqsa, Otabek va Kumush bilan aloqali tasvirlarda bu holat juda



yaqqol ko‘rinadi. Samimiyatga to‘la bu tasvirlarda jonsiz va jo‘n narsalarning erka va huzunli jonlanishi kitobxon ko‘ngliga xuzur baxsh etadi: Bu xabarna eshituvchi — Kumushbibining qora ko‘zlari jiq yoshga to‘lib, kipriklari yosh bilan belandilar... Go‘yo bu so‘zlar Kumushbibining o‘chgan chirog‘ini qaytadan yoqarlar, umid osmonining yo‘qolib, yashirinib ketgan yulduzlari yana qaytadan o‘z o‘rinlariga kelib qo‘ngandek bo‘lurlar, uning ko‘z o‘ngida joy olgan qoraliklar shu yoqila boshlagan najot shamlari partavi bilan o‘z-o‘zlaridan yo‘qolgandek ko‘rinarlar edi.

Bunday erka va go‘zal tasvirni soxir so‘zchi Cho‘lponning "Kecha va kunduz" romanida ham ko‘rish mumkin. Ayrim misollar: Uning (Zebining) oyoqlari allaqanday yomon bir kuchning afsuniga ilashganlar, o‘sha kuchning sudragan tomoniga borardilar... Shunday qilib, ikki alamzada ko‘ngil juda qisqa bo‘lgan quvonchlarga berildilar... Faqat bu to‘rt devol orasiga kiradigan quvonchlar o‘tkinchining nazariday bir nafasga kirib chiqadilar.

Grammatik me‘yorlar so‘zlarning o‘zaro birikishi uchun tegishli sharoitlarni taqozo etadi. Avvalo, ma‘nolarda mushtaraklik bo‘lmasa, so‘zlar bog‘lana olmaydi. Aytaylik, yashil o‘tloq birikmasi mantiqan to‘g‘ri, ammo yashil navo birikmasi mantiqan noto‘g‘ri yoki baqirgan odam — mantiqan to‘g‘ri birikma, baqirgan sukunat esa mantiqan to‘g‘ri emas. Tabiiy, ularning grammatik tabiatida ham uyg‘unlik yo‘q. Nihoyat, so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishiga ularning har biriga xos leksik-uslubiy xususiyatlari ham monelik qilishi mumkin. Masalan, yutuqqa erishmoq, muvaffaqiyatga erishmoq deb ishlatish mumkin, biroq kamchilikka erishmoq, muvaffaqiyatsizlikka erishmoq deb bo‘lmaydi.

Badiiy nutqda so‘zlarning o‘zaro bog‘lanish qonuniyatlari adabiy tildagiga qaraganda birmuncha o‘ziga xos tarzda kechadi.

So‘zlarning o‘zaro qo‘shilish chegaralari kengayadi. Chunki badiiy nutqda so‘zlarni ko‘chma ma‘noda qo‘llash tendensiyasi juda kuchli. So‘zlarni ko‘chma ma‘noda qo‘llaganda esa ularning bog‘lanishidagi cheklanishlar deyarli yo‘qoladi. Masalan, qora kuch, totli yil, ohang oqmoqda va shu kabi birikmalardagi so‘zlar aynan o‘z ma‘nosida tushunilsa, bu birikmalar mutlaqo bemantiq bo‘lib tuyuladi.

Ammo ular badiiy nutq nuqtai nazaridan juda mantiqli va obrazlidir. Shuning uchun badiiy asar tilini obyektiv borliq xodisalari bilan konkret mutanosibligiga ko'ra baholash asossiz va noto'g'ridir. Estetik butunlik bo'lgan badiiy asar ijodkori uchun narsalarning konkret mohiyati emas, balki ularning yuksak badiiy ifodasi, yaxlit obrazi ahamiyatliroqdir. Ijodkor ana shu maqsad bilan tildan yangi-yangi imkoniyatlar izlaydi. Bunday imkoniyatlardan biri badiiy bo'lmagan nutqda o'zaro bog'lanishi chegaralangan so'zlarni bog'lash orqali turli ma'no nozikliklari, ekspressivlik, emosionallik va shu kabilarni yuzaga keltirishdir. Badiiy nutqdagi bunday birikmalarni g'ayriodatiy birikmalar deyish mumkin. Bunday birikmalar o'zining "yangiligi", individualligi va ayni g'ayriodatiyligi bilan tezda diqqatni tortadi. O'quvchi beixtiyor bunday birikmalar ustida o'ylay boshlaydi, natijada yozuvchining niyatini chuqurroq tushunadi. Shuning uchun ham odatiy birikmalarga qaraganda g'ayriodatiy birikmalar badiiylik nuqtai nazaridan ko'proq ahamiyatlidir.

Zabardast shoir Maqsud Shayxzodaning "Shoir qalbi dunyoni tinglar" she'ridan olingan quyidagi parchada g'ayriodatiy birikmalarning badiiy va estetik salmog'ini to'la his qilish mumkin:

*Tovushlarning kichik, ulug'i,*

*Tovushlarning hadi — bo'yi bor.*

*Tovushlarning sovuq, ilig'i,*

*Tovushlarning rangi—ro'yi bor.*

*Tovushlarning shirin—achchig'i,*

*Bordir hatto yumshoq, qattig'i.*

*SHoir rassom bo'lsaydi. agar,*

*Chizar edi shundan lavhalar.*

Parchadagi so'nggi ikki misradan boshqa misralardagi barcha birikmalarning g'ayriodatiyligi, "yangiligi" aniq sezilib turibdi, chunki badiiy bo'lmagan nutqda bu birikmalar shakllana olmaydi. Ammo badiiy bo'lmagan nutqda ham shunday birikmalar uchraydiki, ularni tashkil etgan so'zlarning ma'nolari o'zaro sig'ishmaydi. Biroq shunga qaramasdan, bizga ular odatiy birikmalarday tuyuladi,

so'zlarning umumiy bog'lanish qonuniyatlariga to'la mosday ko'rinadi. Lekin yaxshiroq diqqat qilinsa, ularda ham bog'lanish qoidalaridan ma'lum ma'noda chekinishlar borligini ko'rish qiyin emas. Masalan, shirin so'z birikmasi ko'p uchraydi, undagi shirin so'zi ta'm bilish a'zosi orqali seziladigan belgini bildirsa, so'z so'zi eshitish a'zosi vositasida seziladigan tushunchani ifodalaydi. Bu esa ikki so'zning o'zaro bog'lanishi uchun monelik qiladigandek ko'rinadi. Lekin ularning har ikkisiidagi yoqimlilik belgisi ularni tutashtiradi va shirin so'zi "yoqimli" ma'nosi bilan mazkur birikmaga kirish xuquqiga ega bo'ladi. Hosil bo'lgan birikma dastlab g'ayriodatiy bo'ladi, o'zida "yangilik" bo'yog'ini saqlaydi. Ammo bu va shunga o'xshash sovuq xabar, sovuq gap, shirin tush, shirin xotira, achchiq g'am, achchiq pushaymon, qiziq gap kabi bir qancha birikmalar o'zidagi "yangilik" bo'yog'ini yo'qotgan, xozirda ular bizga odatiy birikmalarday tuyuladi. Bunday birikmalar vaqtlar o'tishi bilan doimiy qo'llanishga kirgan.

Rasmiy-publisistik uslubda bu uslubning o'ziga xoslangan, uni xarakterlovchi so'z va sintaktik tuzilmalar juda ko'p. Ular xatto doimiy birikmalarga, iboralarga aylanib qolgan. Ularni eshitishimiz (yoki o'qishimiz) bilan ixtiyorsiz ravishda rasmiy-publisistik uslub xayolimizga keladi. Aytish mumkinki, bunday birikmalar rasmiy-publisistik uslubning o'ziga xos tamg'alari sifatida odatiylashib qolgan. Masalan, yutuqlarga erishmoq, ta'kidlab o'tmoq, keng muhokama qilmoq, alohida e'tiborni qaratmoq, kamchiliklarni bartaraf etmoq, misli ko'rilmagan darajada mustahkamlamoq, tarixiy voqealarga guvoh bo'lmoq, qayd qilmoq, faktlarga murojaat qilmoq va boshqa bir qator shu kabi so'z, so'z birikmalarini esga olish mumkin. Bunday birliklarni xatto mazkur uslubning o'zida ham ko'plab qo'llash u qadar ham maqsadga muvofiq. emas. Ular nutqning xaddan ortiq quruq va zerikarli bo'lishiga olib keladi. A.Qahhor o'zining "Nutq" feletonida bu usuldan juda katta maxorat bilan foydalangan. Feletonda ayrim notiqlarning xaddan tashqari quruq va qolipli gapirishi o'tkir kulgi ostiga olingan. Notiq xatto xotini bilan (intim — maishiy mavzu) ham rasmiy-publisistik uslubda gaplashadi. Bu kitobxonda achchiq va istexzoli kulgi qo'zg'atadi:

— O‘rtoq rafiqam! Ijzat berasiz, xushchaqchaq hayotimizni. sharaf bilan davom ettirab, oilaviy burchimizni namunalik bajarib kelayotganimizga bir yil bo‘lgan kunda sizni bevosita tabrik qilishga... Siz bilan biz bir yillik oilaviy faoliyatimiz natijasida qanday yutuqlarga erishdik? Avvalo shuni ta ‘kidlab o‘tish kerakki, biz u yoki bu masalada yuz beradigan prinsipial kelishmovchiliklarni chetdan kuch jalb qilmasdan, o‘z kuchimiz bilan, o‘zaro kengmuhokama qilish yo‘li bilan bevosita bartaraf qiladigan bo‘lib qoldik. Ikkinchidan, o‘rtoq rafiqam, oilamizni tashkilay ho‘jalik jihatdan misli ko‘rilmagan darajada mustahkamladik. Men bu bobda faktlarga murojaat qilib o‘tirmayman, chunki ordenli onangiz o‘zlarining har bir tarixiy kelishlarida bu narsani ayrim ravishda qayd qildilar.

Badiiy so‘z ustalari so‘zlarni boshqa uslubga ko‘chirib qo‘llar ekan, turli xil estetik imkoniyatlarni yuzaga chiqaradilar. Badiiy nutqda adabiy tilning grammatik, uslubiy yoki boshqa me‘yorlaridan badiiy-estetik maqsad bilan chekinilishi adabiy til me‘yorlarining nainki buzilishi, balki badiiy nutqning mutlaqo o‘ziga xos me‘yorlarining voqe bo‘lishi tarzida baholanadi. Nutqning to‘g‘riligi sifati badiiy uslubda ana shunday o‘ziga xos bir tarzda namoyon bo‘ladi. Badiiy nutqda kuzatiladigan adabiy til me‘yorlaridan chekinish holatlari va buning oqibatida yuzaga keladigan estetik ta‘sirning qimmatini idrok etmoq uchun, albatta, adabiy til me‘yorlarini puxta bilmoq lozim.


### 1.3. Uslubni yaratuvchi vositalar

Har bir uslubni yaratuvchi vositalar mavjud. Bularni quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:


**1. Leksik vositalar:** sinonim, omonim, antonim, paronim, ko‘p ma‘nolilik, tag ma‘no (gapning tagida yashiringan ma‘no), sifatlash, o‘xshatishlar, frazeologik birlik, sheva, noadabiy so‘zlar (jargon, argo, so‘kish, qarg‘ish kabilar), kasb-hunar so‘zlari, mubolag‘a (giperbola), arxaik va tarixiy so‘zlar, atamalar.

**2. Fonetik vositalar:** nutq tovushlari, ohang, urg‘u.

**3. Grammatik vositalar:** a) morfologik vositalar: har bir soʻz turkumi; b) sintaktik vositalar: gap boʻlaklari, ritorik soʻroq gaplar, undalma, kirish soʻz, kirish birikma, sodda va qoʻshma gaplar, koʻchirma va oʻzlashtirma gaplar.



Maʼlum bir uslubga tegishli boʻlgan soʻzlar uslubiy xoslangan soʻzlar deb yuritiladi: *yangligʻ* soʻzi badiiy uslubga, *omonim*, *sinonim* soʻzlari ilmiy uslubga, *balli*, *ketvorgan* kabi soʻzlar soʻzlashuv uslubiga, *faollar yigʻilishi*, *siyosiy maydon* kabi soʻz birikmalari ommabop uslubga xosdir. Soʻzlashuv uslubida ham, kitobiy uslubda ham ishlatilaveradigan soʻzlar **uslubiy betaraf soʻzlar** hisoblanadi: *suv*, *togʻ*, *bola*, *xat*. Bu soʻzlar koʻchma maʼnoda qoʻllansa, maʼlum bir uslubga tegishli boʻlishi mumkin.



Ona tilini, uning barcha bo'limlarini mukammal bilmay turib, uslubiyatni o'rganish mumkin emas. Ha, uslubiyatni yaxshi bilmay turib ona tilimizning har qanday fikr, tushuncha, his-tuyg'u, voqelik va boshqalarning eng nozik nuqtalarigacha to'la va nafis ifoda eta olishi mumkinligini anglab bo'lmaydi.

Ma'lumki, fikr og'zaki va yozma ravishda bayon etiladi. Har ikki shaklda ham so'z ishlatishda ehtiyotkorlik, mas'uliyat kerak. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, A.Navoiy, Z.M.Bobur kabi shoirlarimiz asarlarida so'zni o'ylab ishlatish zarurligi ta'kidlangan, bu fikr xalqimizning «Aytildan so'z-otildan o'q» maqolida ham o'z aksini topgan.

Og'zaki nutqda so'z qo'llashdagi ayrim nuqsonlar umumiy fikr ichida sezilmay qolishi yoki tinglovchi uni to'g'ri tushuna bilishi mumkin. Lekin yozma nutqda bunday qilib bo'lmaydi. Yozma nutqda har bir so'zning nominativ, denotativ va konnotativ ma'nolari jiddiy hisobga olinishi lozim. Aks holda fikr noaniq yoki xira bo'lib qolishi mumkin.

So'z tanlashda quyidagi xatolar sodir bo'lishi mumkin:

1. So'zni noto'g'ri qo'llash.
2. So'zni o'rinsiz takrorlash.
3. So'zni ortiqcha qo'llash.
4. So'zni tushirib qoldirish.

1. So'zni noto'g'ri qo'llash so'zning denotativ ma'nosini hisobga olmaslik, konnotativ ma'nosini o'zi bilganicha ishlatish bilan xarakterlanadi. Masalan: O'zbekiston xalqi va uning yengilmas armiyasi terrorchilarning kulini ko'kka sovurib, poytaxt minorasi ustiga tinchlik bayrog'ini qadadi (Gaz.). Bu gapda «g'alaba» o'rniga, «tinchlik» so'zi ishlatilganki, bu so'z matn mazmuniga ham to'g'ri kelmaydi. Aslida, jangdan so'ng g'olib g'alaba bayrog'ini tiklaydi. Yana misollar: O'tgan yili shu odam qaynamaydigan joyda bir-ikki marta kino ko'rsatildi-yu kutubxonalarning ham eshigiga qulf urildi. (Og'z.so'zl.). Hayhotdek xonada 145 dona kitob...o'quvchi poylab yotibdi. (Og'z.so'zl.). Biz o'z navbatida yiroq avlodlarimizga nimalarni meros qoldiramiz... (Gaz) kabi.

2. So'zni o'rinsiz takrorlash nutqni buzadi, siyqalashtiradi, fikrni xiralashtiradi. bayon etishda qaysi so'zdan qayerda foydalanishni o'ylab olmoq lozim. Misollar: o'z-o'zidan yo'qolayotgan kiyimlarni yo'qotishga chek qo'yish kerak.

(Gaz.)...she'riy falsafani **nazarimda** ikki she'r...belgilab beradi. **Nazarimda**, bu o'tmish, hozirgi, kelajak avlod oldiga qo'yilgan hisob-kitobdir. (Gaz.)

She'riy asarlarda takror (anafora) maxsus usul bo'lib<sup>15</sup> musiqiylik, ma'no kuchaytirish, badiiy zavq uyg'otishga xizmat qiladi. H. Olimjon, Uyg'un, G'.G'ulom asarlarida bunday takror (anaforalar) ko'plab uchraydi.

<sup>15</sup> Qarang: Ishoqov Yo.. Qaytarish san'ati. O'TA, – Toshkent: 1972, 2, 83-87-betlar.

Takrorlar turlicha formada har xil ma'nolarni anglatishga xizmat qilishi mumkin.<sup>16</sup>

Takrorlar prozaik asarlarda personajlar nutqida kamroq uchraydi, dramatik asarlarda esa ko'plab ishlatiladi. Ular ma'noni kuchaytirish, intensivlik va emotsionallikka xizmat qiladi. Ba'zilari esa o'ylanish, aniqlik, izoh kabi qiymatga ega bo'lishi mumkin. Misollar: Menga qiyin, menga! (A.Q. ... Kalla deb jun chiqqan qovoqni kiyib yurgan ekanman, jun chiqqan qovoqni! (A.Q). Nima qipti, bo'lishi mumkin, mumkin. (A.Q.). Juda o'zgarib ketibdi, - o'ylardi Abdulla...-juda o'zgarib ketibdi (O'.U.). Suvni, to'lib-to'lib oqqan suvni ko'rsam (Y.Sh.).

3. So'zni ortiqcha qo'llash muayyan nutq paytida mutlaqo keraksiz bo'lgan so'zning gap ichiga kirib qolishidir. Bu ham nutqni buzishi, noaniqlik va chalkashlikka olib kelishi mumkin. Bunday nuqsonlar ko'pincha mexanik ravishda yoki gapni murakkab tuzishda ro'y beradi. Masalan: Men esa sizga o'tgan yilda qilinmay qolgan ishlarning ayrimlarini nima sababdan bajarilmayotganini aniqlab, bunaqa nuqsonlarning takrorlanmaslik chorasini o'ylayapman (Gaz.).

4. So'zni tushirish va so'z tanlashdagi noaniqlik eng qo'pol xatolardan bo'lib, fikriy chalkashlikni keltirib chiqaradi, hatto noto'g'ri xulosalarga olib keladi. Bunday xatolar ba'zan matbuot xodimlarining maqola-matn hajmini qisqartirishga urinib «tuzatishi», ba'zan esa muallifning e'tiborsizligi oqibatida sodir bo'ladi. Masalan: Avlodlarga bizdan ruhimiz va ruhimizning moddiy ko'rinishlari meros qoladi. (Gaz.) Bu gapda «ruhimiz» so'zida noaniqlik bor, «va» dan so'ng esa «shu» so'zlari tushib qolgan. Holbuki, bunday tushirish shu o'rinda mutlaqo mumkin emas edi. Abdullaning she'ri ba'zan qanchalar baland qilib aytilgan qarama-qarshiliklardan xoli bo'lmasa-da, lekin u bizni...ogoh bo'lishga undab turadi (Gaz). Bu gapda ham so'z tanlashda, birikmalar hosil qilishdagi beparvolik sezilib turadi.

So'z qo'llashdagi xatoliklardan yana biri so'zlarni buzib, farqiga bormay ishlatishdir. Bunday nuqson radio va televideniye eshittirishlarida ham, matbuotda

---

<sup>16</sup> Qarang: Turobova M. Shevalarda gap bo'laklarining takrorlanishi. O'TA, - Toshkent: 1971, 4, 63-64-betlar. Abdurahmonov X. Maqol va matallarda takror komponentlarning qo'llanishi. O'TA, - Toshkent: 1974, 3, 60-63-betlar.



ham uchrab turadi.<sup>17</sup> Nutq madaniyatini yuksaltirish uchun kurash kuchaygan, kishilarning fikr bayonida aniqlikka talabi ortayotgan hozirgi kunda bunday xatolarga yo'l qo'yishni odatiy hol deb bo'lmaydi.

### **BOB YUZASIDAN XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, uslubiy me'yorlarni puxta egallash, ularga ziyraklik bilan muntazam amal qilish malakalariga ega bo'lmoq uchun ko'p o'qish, o'rganish, qisqasi, ko'p ter to'kishga to'g'ri keladi. Ayniqsa, o'qituvchi va asosiy quroli so'z bo'lgan boshqa kasb egalari bu me'yorlar bo'yicha malakalarini oshirish borasida muttasil shug'ullanishlari lozim.

Uslublarni bilish va o'rganish barcha uchun birdek muhimdir. Chunki nutqimizning chiroyli, mazmundor chiqishida uslubning o'rni beqiyos. Adabiy kechalarni rasmiy uchrashuvga aylantirmaslik uchun adabiy me'yorlar asosida so'zlashishimiz lozim, yoki ilmiy kengashlarda so'zlashuv uslubida maruza qilish ham kulgili holat bo'ladi. Har bir shaxs eng kamida o'z sohasi tilini, uslubini o'rganib qo'ygani foydadan holi bo'lmaydi. Masalan biz jurnalistika sohasi vakillari, albatta, publisistik uslubni chuqur egallagan bo'lishimiz kerak, bundan tashqari, jurnalistika barcha sohalar bilan bog'liqligini hisobga olgan holda boshqa uslublarni ham o'rganish zarar qilmaydi. Chunki faoliyat davomida ilmiy kengashlardan tortib senatimiz yig'ilishlari-yu badiiy asarlar tahlili bilan shug'ullanishga to'g'ri keladi. Shunday ekan uslublar haqida chuqur bilimga ega bo'lish zaruratdir.

---

<sup>17</sup> Qarang: Ibrohimov S. Nutq madaniyatiga oid masalalar. – Toshkent: Fan, 1973, 17-18-betlar. Ma'rufov A. Nutq madaniyatining ba'zi masalalari. 1972, 34-36-betlar.

## II BOB. NUTQNING USLUBIY TURLARI VA ULARNI O‘RGATISH

### 2.1. Nutqning uslubiy shakllari. “Nutq uslublari” mavzusining darsliklar va DTSda berilishi

«Nutq uslubi» tushunchasi ham ma'lum bir shaklning fikr almashuv jarayonida ko'p yoki oz ishlatilishi bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xoslikka aloqador.

Kishilar o'zaro aloqa-munosabat jarayonida tilning fonetik, leksik, frazeologik va grammatik vositalaridan tanlab foydalanadilar. «... Maftun etishning asosiy vositasi sifatida yozuvchi birinchi o'ringa uslubni qo'yadi».<sup>18</sup> Umumxalq tili vositalarining bunday tanlab ishlatilishi nutqning turlicha ko'rinishlarining paydo bo'lishiga olib keladiki, bu «nutq uslublari» deb yuritiladi.

Nutq uslublari leksik-grammatik jihatdan farqlanib turadi. Masalan, so'zlashuv uslubida odatdagi tartib turlicha o'zgarib tursa, terminlar, murakkab tuzilgan qo'shma gaplar kam ishlatilsa, ilmiy uslubda buning aksi kuzatiladi.

Nutq uslublarning har biri tilning bir butun yaxlit tizimi doirasida ish ko'radi va ifoda maqsadiga ko'ra til vositalarining uyushishi, takrorlanishi bilan xarakterlanadi. Masalan, ot, kelishik, egalik, sifat, asliy, nisbiy, ega, kesim, ikkinchi darajali bo'lak va hokazo terminlarning tilshunoslikka oid ilmiy ishlarda qo'llanishi, uyushishi va takrorlanishi ilmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Nutq uslublarni belgilashda so'z, grammatik shakl va grammatik qurilishning uslubiy bo'yog'i jiddiy hisobga olinadi. Masalan, kichraytirish-erkalash jilosini beruvchi grammatik kategoriyalar, shamol, kuldi, aytdi, gapirdi kabi so'zlar so'zlashuv uslubiga xos bo'lsa; tabassum qildi, so'zladi, sabo, boda kabilar badiiy nutqqa xos. Shuningdek, jilmaydi kabi so'zlar ijobiy; tirjaydi, ishshaydi kabilar salbiy munosabat bildiradiki, nutq jarayonida bu xususiyatlar hisobga olinadi.

Albatta, so'zning ijobiy yoki salbiy munosabat ifoda etishi hamisha nutq uslubini belgilashga asos bo'la olmaydi. Biroq sinonimik qatorni hosil qiluvchi

---

<sup>18</sup> Alimuhamedov A. Antik adabiyot tarixi. - Toshkent: O'qituvchi, 1969, 199-bet.

bunday so'zlarning ko'pchiligi so'zlashuv va badiiy uslubda ishlatilishi, rasmiy ish va ilmiy uslubda esa sanoqli hollardagina saylab olinishi mumkinligi bilan xarakterlanadi.

Til boyliklaridan har kim o'zicha foydalanib so'zlaydi. Bir tur so'zlar va tilga tegishli boshqa belgilar bir nutqda ko'proq ishlatilgani holda boshqa nutqda uchramaydi. Boshqa bir nutq o'zining so'z boyligi va gaplarining qurilishi, ohangi bilan uchinchi bir nutqdan ajralib turadi. Til boyliklarini tanlab ishlatishga qarab nutq ko'rinishlari bir necha turga ajraladi. Ana shu xilma-xillik nutq uslublari (stillari) deb ataladi. Nutq uslublari aloqaning maqsadga muvofiq amalga oshuvi yo'lida so'zlovchining til boyliklaridan tanlab foydalanishi tufayli nutqning tarixan shakllangan ko'rinishidir.

Quyidagi misollar orqali nutq uslublari tasavvur qilsa bo'ladi: «...2-modda. Har bir inson, har qanday tafovutlaridan qat'i nazar, ya'ni irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki o'zga e'tiqodlari, moddiy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy, tabaqaviy yoki boshqa mavqeiga qaramasdan, ushbu Deklorasiyada e'lon qilingan barcha huquqlar va erkinliklarga ega bo'lishi lozim. Bundan tashqari, inson mansub bo'lgan mamlakat yoxud hududning siyosiy, huquqiy yoki xalqaro statusga ega ekanligi asosida bu hudud mustaqil, vasiylikdagi, o'z-o'zini idora qilmaydigan yoxud suvereniteti qaysidir jihatlardan cheklab qo'yilganidan qat'i nazar, biron-bir darajada odam ajratilishiga yo'l qo'ymasligi kerak»<sup>19</sup>.

«Jonginam, axir sizga ne gunoh qildimki, menga buncha sitamlar qilasiz? Kecha aytgan joyingizga borib, qosh qorayguncha kutdim, kelmadingiz. Kutgandan yomoni bo'lmas ekan»<sup>20</sup>.

«Sistem tilshunoslikda gapning sintaktik struktura unsurlari gap bo'laklari yoki sintatik pozisiya nuqtai nazaridan, propozitiv struktura uslublari esa obyektiv reallik strukturasi izomorflik nuqtai nazaridan, kommunikativ (aktual) struktura tema (ma'lum) va rematik (yangi) nuqtai nazardan o'rganiladi»<sup>21</sup>.

<sup>19</sup> «Inson huquqlari umumjahon Dekloratsiyasi»dan. «Uzbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi. 1989 yil 31 mart.

<sup>20</sup> X. To'xtaboyev. «Jonginam, shartingni ayt». Toshkent, 1978 128- bet.

<sup>21</sup> A. Nurmonov. Tilni sistemali o'rganish va sintaksisning ayrim munozarali masalalari. «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali. Toshkent, 1988, 5- son, 22- bet.

Bu nutq parchalarining har bir grammatik qurilishi, leksikasi, ohangi jihatidan birbiridan keskin ajralib turadi. Birida rasmiy nutqqa xos leksika, ikkinchisida kundalik hayotda ishlatiladigan soʻzlashuv leksikasi, uchinchisida tilshunoslik ilmiga xos leksika asosiy oʻrinni egallaydi.

Demak, nutq uslublari, umumxalq tili materiallari zaminida ajratiladi va shu nuqtai nazardan talqin qilinadi. Bu jihatdan terminlar oʻziga xoslikni tashkil etadi: ular, asosan, ilm ahli nutqida ishlatiladi. Biroq ilm-fan muayyan millat, muayyan xalqning ma'naviy mulki, shu xalqning taraqqiyot darajasini ko'rsatuvchi muhim belgi ekanidan, terminlarga umumxalq tili vositasi sifatida qaraladi.

Nutq uslublari davr o'tishi bilan mukammallashadi, o'zining barqaror vositalariga ega bo'ladi, yangidan paydo bo'ladi. Masalan, rasmiy ish, badiiy uslub o'tgan asrning 50-yillaridan so'ng boyidi, rivojlandi, publitsistik va ilmiy uslub esa yangidan paydo bo'ldi.

Nutq uslublari yozma va og'zaki nutq shakllari bilan qat'iy bog'liq. Yozma nutq pishiq-puxta o'ylanganligi, har bir so'z, grammatik forma va qurilishning o'z o'rnida ishlatilishi, mantiqiy izchilligi, takrorlarning bo'lmasligi bilan og'zaki nutqdan farq qilib turadi.


Uslubshunoslikka bag'ishlangan asarlarda nutqning quyidagi uslublari ko'rsatiladi: 1. Soʻzlashuv uslubi. 2. Rasmiy uslub. 3. Ilmiy uslub. 4. Publisistik uslub, 5. Badiiy uslub.

Har bir uslub oʻziga xos sistema boʻlib, boshqa uslublardan koʻpgina belgilari bilan ajralib turadi.

Soʻzlashuv uslubi. Bu uslub oʻz leksikasi, fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisi bilan xalqning oddiy soʻzlashuv tilini oʻzida aks ettiradi. Soʻzlashuv uslubi uchun oddiylik, soddalik, betakalluflik, hayajonlilik xosdir. Xalq orasida keng tarqalgan «qosh qorayguncha», «qovogʻini uyub», «koʻzini olaytirib», «uchchiga chiqqan» kabi frazeologizmlardan; ona, osh, tuz, er, bola, kun, joʻra, ogʻayni, jonginam, oqshom, ertamertan kabi soʻzlardan; -uvdi (boruvdi), -chiydi (oʻqigʻichiydi), -iydi (boriydi, zoʻriydi), -chi (dorichi, mashinachi), -qira (sirqiramoq, oqarinqiramoq) kabi yasovchilardan, gapning dialogik, toʻliqsiz, bir

tarkibli, soʻz-gap kabi shakllaridan foydalanish soʻzlashuv uslubida bir qadar koʻproq uchraydi.

Soʻzlashuv uslubi deganda kishilarning kundalik faoliyatida oʻzaro aloqasini taʼminlovchi ogʻzaki nutq tushuniladi.<sup>22</sup> Bu uslubda sheva elementlari, passiv lugʻatga xos soʻz va iboralar, boshqacha aytganda, adabiy til normalariga mos kelmaydigan fonetik, leksik, morfologik va sintaktik hodisalar erkin ishlatilab beradi.



Soʻzlashuv uslubining oʻziga xos xususiyatlari boʻlib, u fonetik, leksik-frazeologik, morfologik va sintaktik jihatdan boshqa nutq uslublaridan ajralib turadi: fonetik jihatdan tovush oʻrni almashadi: yogʻmir (yomgʻir), turpoq (tuproq); tovush tushadi: tasha (tashla), ke (kel), yudi (yuvdi); tovush ortadi: chechmoq (yechmoq), yilon (ilon), istakan (stakan); tovush almashadi: minan (bilan), sammi (senmi), moʻnchoq

<sup>22</sup> Oʻrinboyev B. Soʻzlashuv nutqi. - Toshkent: Fan, 1979. 9-b.

(munchoq); o'zak-affiks o'zgarishi ro'y beradi: opke (olib kel), qo'yvor (qo'yib yubor) kabi.

Leksik-frazeologik jihatdan kundalik hayot bilan bog'liq bo'lgan osh, non, tuz, yer, osmon, quyosh, bola, xotin, o'rtoq, ko'z, qo'l, oyoq, men, sen, u, biz, siz, bir, besh, olti, o'n, ishladi, o'qidi, yetdi, keldi, ketdi, tez, sekin, kabi, shuningdek, san'at, adabiyot, siyosatga doir so'zlardan tashqari, so'zlashuv uslubida farzand, jujuq, churvaqa, zormanda, arzanda, pismiqliq, shalparpishiqliq, xomkalla, akillamoq, bobillamoq, to'ng'illamoq, po'ng'illamoq kabi uslubiy bo'yoqli so'zlar ko'proq ishlatiladi.

So'zlashuv uslubiga xos yana bir xususiyat so'zni qisqartirish va ko'chma ma'noda qo'llashdir. Masalan, kilo (kilogramm), foto (fotografiya), metro (metropoliten), avtomat (avtomat telefon), tushlik (tushlik ovqat), futbolga bormoq (futbol o'yinini ko'rishga bormoq), ovqatga o'tiring (ovqat yegani o'tiring), paxtani bajardik (paxta rejasini bajardik) kabi. Iskovich, tosh, (odam), chayon (gap bilan kishini xafa qiladigan), beliga tepmoq (xalaqit bermoq), loyini chiqarmoq (sirini fosh qilmoq, ishni chigallashtirmoq) kabilar ham, asosan, so'zlashuv uslubiga xosdir.

Ayrim eskirgan patta, chipta, chek, pattachi, po'rim, shayton arava, miri (bir pul, ikki pul) kabi so'zlar ham so'zlashuv uslubining leksik xususiyatlaridandir.

So'zlashuv uslubida nisbatan ko'proq ishlatiladigan morfologik formalar asosan, kichraytirish-erkalash oti, sifatlarning intensiv forma hosil qiluvchi affikslari va affiksoidlardir. Fe'llarning ayrim shakllarini «buzib» ishlatish – borib edi (boruvdi), boringizlar, kelingizlar kabi qo'llanishlar ham so'zlashuv uslubiga xosdir.

So'zlashuv uslubi, asosan, dialogik xarakterda bo'lganidan, imo-ishoralar, qo'shimcha izohlar, takrorlar (so'zda), qaytariqlardan; (gapda), qo'l, bosh va gavda harakatlaridan fikr ifodalashda qo'shimcha vosita sifatida foydalaniladi. Bu nutqning dialog xarakterda bo'lishi nutq vaziyatiga ko'ra ko'proq to'liqsiz gaplardan foydalanishni taqazo etadi. Bundan tashqari, so'zlashuv uslubida inversiya, sodda

gaplar ko'chirma gapning avtor gapi o'rtasida kelgan formalari, qo'shma gapning «u aytdiki, bunday dedi» tipi ham ko'proq kuzatiladi.

Rasmiy uslub. Huquqiy va diplomatik hujjatlar, davlat qonunlari, idora-tashkilotlarning qaror, buyruqlari, ahdnoma, shartnomalar va kishilarning turli tashkilotlar bilan yozishmalaridagi o'ziga xos so'z tanlash usul va fikr ifodalash vositalarida rasmiy ish uslubining xususiyatlari aks etadi. Rasmiy ish uslubi juda keng va xilma-xil bo'lsa-da, so'z saylash va ifoda vositalarining yaxlitligi bilan umumiy tizimga birlashadi. Ushbu uslub keng ma'noda barcha yozishmalarni o'z ichiga oladi.<sup>23</sup>

Rasmiy ish uslubi uchun shtamp holiga kelib qolgan ibora-ifodalar xarakterlidir. Masalan, qaror, buyruq va farmonlarda gapning kesimi ko'pincha majhul nisbatdagi buyruq fe'li formasida bo'ladi. Bu uslubda har bir sohaning o'z terminlari bo'ladi. Umumxalq tilida shlatiladigan ayrim so'zlar rasmiy ish uslubida terminga, faqatgina bir ma'no anglatuvchi (monosemantik) so'zga aylanishi mumkin. Masalan mehnat qilish, dam olish, o'qish kabi umumxalq tilida so'zlashuv uslubida qo'llanadigan so'zlar «O'zbekiston fuqarolari mehnat qilish, o'qish, dam olish huquqiga egadirlar». O'zbekiston Konstitusiyasi, modda, deganda «jamiyat manfaatlarini yo'lida halol mehnat qilish, o'qib ilmi bo'lish va 10-11 oy ishlagandan so'ng pul bilan ta'minlangan dam olish (mehnat ta'tili)» degan yagona tushunchani aks ettiradi.

Bu uslub rasmiy hujjatlar til xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. E'lonlar, qarorlar, qonunlar, sud va davlat idoralari hujjatlari shu uslubda yoziladi. Rasmiy uslub hayotda juda keng qo'llaniladi. Shuning uchun uning lug'ati rang-barang so'zlardan tashkil topadi. Masalan:

E'lon!

Bugun kech soat sakkizda mahalla xotin-qizlar kengashining navbatdan tashqari yig'ilishi bo'ladi.

Kun tartibi: Usmon Abrorovning oiladagi xulqi va mahalla erkaklarining galdagi vazifalari.

---

<sup>23</sup> Boboxonova D. Ofitsialno-delovoy stil uzbekskogo literaturnogo yazika, AKD, - Toshkent, 1987, 5-b.

Kengash a'zolarining qatnashishlari shart".

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

Ro'za hayitini dam olish kuni deb e'lon qilish to'g'risida

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi musulmonlarining istak va xohishlarini inobatga olib hamda fuqarolar o'rtasida mehr-oqibatni barqarorlashtirish maqsadida diniy bayram — Ro'za hayit («Iyd al-fitr») ni bu yil 4 aprel kuni va keyingi yillarda esa Ro'za hayitining birinchi kuni dam olish kuni deb tayinlansin.

O'zbekiston respublikasi prezidenti

I. KARIMOV.

Toshkent shahri, 1992 yil 27 mart.

Rasmiy ish uslubida ko'chma ma'noli, polisemantik, tantanali (badiiy) so'zlar ishlatilmaydi. Aksincha, aniq ma'noli so'z va iboralar, murakkab gaplar, tarkibi qism va paragraflardan iborat bo'lib, yaxlit bir maqsadga xizmat qildirilgan periodlar ko'p kuzatiladi. Rasmiy ish uslubida ichki bo'linish (podstil) ning ham o'z termin va iboralari, sintaktik qurilishi bo'ladi. Masalan, sud ishlarida oliy sud, ochiq sud, yopiq sud, o'rtoqlik sudi, hakamlar sudi, aybdor, oqlovchi, qoralovchi, ijrochi kabi so'z-terminlar; diplomatik sohada dekleratsiya, ratifikatsiya, shartnoma, bitim, konsul, konsulxona, status, vizit, ultimatum kabi so'z-terminlar; rasmiy-idoraviy aloqalar shartnoma, akt, pudrat, shirkat, fermer, pudratchi, shtraf, to'lov, kredit, debitor qarz, haq kabi so'z-terminlar ishlatiladi.

Idoraviy yozishmalar: spravka, tilxat, chaqiriq xati, tushuntirish xati, taklifnoma, ishonch qog'ozi va boshqalarning ham standart formalari, shtamlari bo'lib, bular yozuvni osonlashtiradi. Masalan, spravkada «Berildi ushbuni ...ga shu haqdakim» deb boshlanuvchi hujjatlarning tayyor nusxalari ham bo'ladiki, kerak bo'lganda, u to'ldiriladi, xolos.

Ilmiy uslub. Ilmiy uslub fanning turli sohalariga aloqador so'z va atamalarni ko'proq tasarruf qilish, bayonning ko'proq mantiqiy dalillarga suyanishi bilan boshqa uslublardan ajralib turadi. Ilmiy uslubda tabiat va jamiyat hodisalari aniq, qandaydir qoidalar, formulalar asosida ifodalanadi. Ilmiy bayonda fikr mantiqiy va



ashyoviy dalillar bilan mustahkamlanib boradi. Ilmiy uslubda to‘liqsiz gaplar, bir tarkibli gaplar, so‘z-gaplar deyarli uchramaydi. So‘zlashuvning qisqa dialog turi ham ilmiy uslubda yozilgan asarlar uchun begonadir.

Ilmiy uslub har bir sohaning terminlari ko‘proq ishlatilishi, grammatik qurilishida mantiqiy bog‘liqlik, izchillik, aniqlik, bo‘laklar to‘laligi bilan farqlanadi.<sup>24</sup> Umumxalq tilida-so‘zlashuv uslubida qo‘llanadigan bir qator so‘zlar ilmiy uslubda termin sifatida xizmat qilishi mumkin. Masalan, tilshunoslikdagi ovoz, tovush, bo‘g‘iz, ot, son, gap, ega kabilar; biologiyada oq tuproq, qora to‘proq, sariq tuproq, o‘zak, tomir kabilar.

Ilmiy uslub tabiiy fanlarda formulalarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu formulalar ideomatik vazifa bajarib, fikr aniqligi, sodda ifoda uchun xizmat qiladi. Ilmiy uslubda badiiy tasvir vositalari, tantanali leksika kabilardan, deyarli, foydalanilmaydi. Biroq ilmiy-ommabop asarlar ham mavjudki, bunda so‘zlovchi (yozuvchi) sof ilmiy bayondan chekinadi, o‘z fikr-mulohazalarini, ilmiy xulosalarining tushunarli bo‘lishi uchun badiiy-publitsistik, shuningdek, so‘zlashuv uslubiga xos bo‘lgan so‘z, ibora va gaplardan foydalanishga harakat qiladi. Ilmiy-ommabop asarlar bunga yorqin misol bo‘la oladi.

Ilmiy uslubning ilmiy va ilmiy-ommabop ko‘rinishlari bor. Ilmiy-ommabop bayon o‘zining leksik tarkibi va sintaksisi bilan xalq ommasiga mo‘ljallangan bo‘ladi. Bunday nutqda fanning maxsus sohalariga aloqador atamalar kamroq ishlatiladi, tilga olinganlariga izohlar berib boriladi.

“Hozirgi davr fonetikasida ikki asosiy usul mavjud: subyektiv va obyektiv usullar. Sub ‘ektiv usul talaffuzni bevosita (ko‘rish va eshitish) kuzatishdan iborat. Bu eng qadimiy va doimo qo‘llash mumkin bo‘lgan usuldir...

Texnik apparatura yordamida, ya‘ni obyektiv usullar yordamida aniqlanuvchi artikulyasion-akustik xususiyatlar eksperimental-fonetik tekshirish yoki nutqni instrumental tasnif etish deb yuritiladi”<sup>25</sup>.

<sup>24</sup> Mukarramov M. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining ilmiy stili. –Toshkent: Fan, 1984, 4-b.

<sup>25</sup> L. Sodiqov va boshqalar. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1981, 31- bet.

“Jismning harakati to‘liq takrorlanadigan eng kichik vaqt oralig‘i tebranishlar davri deyiladi. Davrni siklik chastota orqali quyidagicha ifodalash mumkin:

$$T = \frac{2n}{W_0} \gg 2$$

Publisistik uslub. Davrning ijtimoiy-siyosiy dolzarb masalalarini jo‘shqinlik bilan aks ettirish publisistik uslubga xosdir.

Tarixiy yoki boshqa har xil dalillarni nutqqa kiritib, mantiqiy umumlashmalar chiqarish yoki bu ishni tinglovchiga havola etish, fosh etilayotgan shaxs yoki hodisalar ustidan kinoya, kesatiq, piching hamda qochiriqlar qilish, ritorik, so‘roq gaplardan foydalanib – lisistik nutqni jonli, ta’sirchan, hayajonli qiladi.

Shuni aytish kerakki, har bir publisistik nutq, albatta, shulardangina iborat bo‘ladi, degan gap emas. Publisistik nutqda muallif voqelikka nisbatan faol munosabatda bo‘ladi. Uning hayotga, voqelikka bo‘lgan bunday munosabati dalillarni tanlashda, ularni tahlil qilishda, tilning emosional-ekspressiv vositalarini tasarruf etishda ko‘rinadi.

Publisistik nutqda obrazlilikka katta e’tibor beriladi. Tilning tasviriy vositalaridan keng foydalaniladi. Til vositalarini tanlash mantiqiylik va emosionallik talabiga qarab amalga oshadi.

Ijtimoiy–siyosiy hayot masalalarini yoritgan barcha asarlar publitsistik asarlar jumlasiga kiradi.<sup>26</sup> Bu janr o'zbek adabiy tili sistemasida XX asr boshlarida paydo bo'ldi. «Turkiston viloyatining gazetasi» chiqa boshlashi, so'ng matbuot va nashriyot ishlarining kengayishi, Furqat, Hamza, Ayniy, Sattorxon kabi demokrat shoirlarning ijodida targ'ibotning o'rin olishi publitsistikaning shakllanishiga turtki bo'ldi. Vaqt o'tgan sayin bu janr yanada rivojlandi. Ayniqsa, keyingi davrda radio, matbuot televideniye va boshqalarning xalq hayotiga kirib borishi, ma'ruza,

<sup>26</sup> Abdusaidov A. Gazeta janrining til xususiyatlari. DDA, -Toshkent, 2005, 11-b.

suhbatlarning o'tkazilib turilishi kabi omillar publitsistika taraqqiyotida muhim omil bo'ldi. Publitsistik uslub yozma va og'zaki shaklga ega bo'lib, yozma shakli gazeta-jurnallarning bosh maqolalari, felyetonlar, pamfletlar, murojaatnomalar, chaqiriqlar, deklaratsiyalardan iborat, og'zaki shakli esa, notiqlik san'atidir. Og'zaki shaklga kundalik axborotlar, sharhlovchining chiqishlari ham kiradi.

Publitsistik nutqqa misol sifatida A. Qodiriyning 1920—1936 yillarda yozilgan «Xoy, er yutkur...», «Mushtum», «Oqsoqlangan emish» kabi, H.Olimjonning Vatan urushi yillarida bosilgan «Men o'zbek xalqi nomidan so'zlayman!», «Qaytish», «Do'stligimiz haqida» kabi asarlarini, ko'plab boshqa adiblarning asarlarini ko'rsatish mumkin.

Har ikki formada ham siyosiy faollik, hozirjavoblik, o'tkir va ta'sirchan nutq, mantiqiy salobat, targ'ibot-tashviqot kabi xususiyatlar mavjud bo'ladi.

Publitsistik uslubda avtorning voqelikka munosabati aniq sezilib turadi. Avtor hayotiy masalalarni chuqur mulohaza yuritib tahlil qiladi, isbotlaydi, asoslab tushuntirishga urinadi, tinglovchini ishontiruchi detal va faktlar keltirish bilan kishida tasvirlanayotgan voqelikka salbiy yoki ijobiy munosabat tug'diradi, unga ta'sir etadi. Shuning uchun ham bu uslubda tilning barcha vositalaridan foydalanish mumkin.

Badiiy uslub. Badiiy uslub nutqning boshqa uslubllridan dastlab o'zining obrazlilik va estetik ta'sir etish vazifasi bilan ajralib turadi. Badiiy nutqda til leksikasining hamma qatlamlari ishtirok etadi. Chunki yuqorida zikr etilgan uslublar ijtimoiy hayotning u yoki bu sohasini ifodalasa, badiiy uslub inson faoliyatining barcha qirralarini o'zida aks ettiradi, hammaga taalluqli bo'ladi. Unda turli kasb-kor, fan-texnika, xalqning maishiy hayotiga tegishli rang-barang so'zlar qo'llaniladi. Bu uslubda til vositalari obrazlar va manzaralar yaratadi, kishilarga estetik oziq berish uchun xizmat qiladi.

Badiiy uslub uchun shaxsiy obrazli so'z ishlatish xarakterlidir. Har bir muallif o'ziga xos so'z ishlatish usullaridan foydalanadi. Bu bilan o'ziga xoslikka, asarning o'qimishli bo'lishini ta'minlashga intiladi. Badiiy nutq hamma narsaning yangi, ohori to'kilmagan, boshqalar ishlatmagan bo'lishini xohlaydi. Shu tufayli

shoir va adiblar hammaga ma'lum til vositalaridan o'zigagina xos usulda foydalanishga harakat qiladilar. Shaxsiy obrazlilik publisistik uslubga ham xosdir. Obrazlilik so'zlashuv uslubida ham bo'ladi. Lekin ular ko'pchilik tomonidan ko'p martalab ishlatilgan, «qotib qolgan», «qoliplashgan» holda amal qiladi. Badiiy uslubda obrazlilik yangi, shirador bo'ladi. Chunonchi, Uyg'unning so'z qo'llashdagi o'ziga xosligi, badiiy vositalarning yangiligi, «ohori to'kilmaganligi» quyidagi parchada shundoq ko'rinib turadi:

*Kumush choyshab yopib dalalar,  
Qor qo'ynida uxlab yotadi,  
Ufq'larga qizil hol tashlab,  
Zarsoch yozib quyosh botadi.  
Goh bulutlar ko'kda yastanib,  
Erga oq yaproqlar qo'yadi.  
Izg'irinlar o'ynab-quvnashib,  
Yaproqlarni quchib suyadi.  
Gox uzoqdan oq — zar ko'ylakda,  
Ko'rinadi tog'lar, tepalar,  
Goh cho'zilib quyruq o'rmonlar,  
Ko'z o'ngidan asta o'tarlar...  
Chechaklar, maysalar, chamanlar  
Yashnagandir bahor kunlari.  
Yulduzlar-la to'lib kulgandir,  
Bu qirlarning oltin tunlari.  
Oltin dengiz kabi bug'doylar,  
Quyoshning nuridan emgandir...*

Shoir quyosh nurini, tog', tepalarni qoplagan qorni, tunni, bug'doyzorni oltinga qiyoslaydi. Bunda oltinning qiymati emas, faqat rangi e'tiborga olinadi. Umuman, tasvirda oltin, kumush, zar, uqa kabi so'zlarni ko'p istifoda qilish Uyg'un she'riyatiga xosdir.

Badiiy uslubga xos yana bir xususiyat takrorlar «ortiqcha» ishlatilgan soʻzlarning boʻlishidir. «Oq oydin kechalar, oppoq oydin kechalar...» (Qoʻshiqdan); «Tong yaqin, tong yaqin, oppoq tong yaqin» (Gʻ. Gʻulom) kabi. Bunday soʻz qoʻllash boshqa uslublarda deyarli uchramaydi. Takror va ortiqcha soʻz ishlatishdan maqsad oʻquvchini hayajonlantirish, unga zavq bagʻishlashdir. Demak, bu «ortiqchaliklar», takrorlar uslubiy vazifalarni oʻtagani uchun ham ularning ortiqchaligi sezilmaydi.

Badiiy uslubga xos boʻlgan eng muhim xususiyat unda tantanali-emotsional soʻzlarning koʻp ishlatilishidir. Sabo, yel, chehra, tabassum, takalluf, muhabbat, muyassar, alvon, moviy, silsila kabilar shular jumlasidandir. Badiiy asar turli mavzularda boʻlishi va turli davrning xilma-xil faoliyatini aks ettirishi mumkin. Shunga koʻra, badiiy uslubda tilning leksik qatlamiga oid barcha soʻz, ibora va frazeologik birikmalardan erkin foydalaniladi. Masalan: tarixiy mavzuda yaratilgan asarlarda arxaizm, istorizmlar va oʻsha davr tiliga xos grammatik formalardan erkin foydalaniladi. Zamonaviy mavzuga oid asarlarda ular qoʻllanmaydi, aksincha, bugungi til leksik qatlamidan, shu jumladan, oʻrniga koʻra, dialektizm, jargon, argo va boshqalardan foydalaniladi. Bu bilan obraz yaratishda bevosita ifodaga-obrazning qaysi sheva yoki kasb-hunar vakili ekanini qoʻshimcha izohsiz tasvirlashga erishiladi.

Badiiy uslubda yozuvchining individual tasviri va ifoda vositalari sezilib turadi. Masalan, H. Olimjon asarlaridan shoʻx va oʻynoqi ohang, Gʻ.Gʻulom ijodida masalaga tarixiy-falsafiy yondoshish, M. Shayxzoda ijodida ham falsafiy mushohada, Uygʻun ijodida peyzaj bilan bogʻliqlik, A.Qahhor ijodida siqqlik, A. Qodiriy ijodida batafsil tafsilot, Erkin Vohidov ijodida mantiqiy-qiyosiy tasvir sezilib turadi.

Badiiy uslubda soʻz yaratish, soʻzni koʻchgan maʼnoda ishlatish, iboralarni qayta ishlash kabi jarayon kechadi. Bular yozuvchining mahoratiga, ijodiy qobiliyatining darajasiga bogʻliq. Bunda yozuvchi xalq jonli tilidan keng foydalanadi. A. Qahhor A.P. Chexovning «Chelovek v futlyare» asarini «Gʻilof bandasi» deb tarjima qilishi, Gʻ.Gʻulomning «Koʻkan oʻzi mening bilan koʻp

og'ayni» deb ta'riflashi, A.Oripovning «Qachon xalq bo'lasan, ey, olomon» deb murojaat etishi va boshqalar yuqorida nomi tilga olingan yozuvchi, shoirlarni xalq tili, xalq iboralarini naqadar chuqur bilishini ko'rsatadi.

So'z tanlash badiiy asarning janr xususiyatlariga ham bog'liq. Masalan, arxaik so'zlar ba'zan davr koloriti, shaxs xarakterini ko'rsatish uchun ishlatilsa, ba'zan kulgi-mazax uchun xizmat qiladi. Masalan, A.Qodiriyning romanlarida ishlatilgan arxaik so'zlar davr koloritini ko'rsatishga, satirik asarlarida esa shaxslar ustidan kulishga, mazaxga xizmat qildirilgan.

Ba'zan nutqda ko'tarinkilik, obrazlilik, nazokatni ta'minlash uchun hozirgi o'zbek tilida hamma birday tan olgan, adabiy norma sifatida ko'pdan qo'llanib kelayotgan so'zlar (yog'och, dunyo) bo'lgani holda tildan allaqachonlar chiqib ketgan so'zlar (og'och, ochun) nutqqa olib kiriladi:

*Og'ochlar gulladi, ochun uyg'ondi*

*Olislar uyg'ondi, yaqin uyg'ondi.*

(O'. Avaz)

Shunday qilib, badiiy uslubga xos xususiyatlarning ba'zi birlari yuqoridagilardan iborat. Badiiy uslubda so'z qo'llash badiiy adabiyot janrlariaro ham farq qiladi.

Umumta'lim maktablarining 8-sinf o'quvchilari uchun chiqarilgan darslikda quyidagicha ma'lumot berilgan.

Adabiy nutq va uning uslublari.

Til kishilik jamiyatida fikr almashish, aloqa-aralashuvining eng asosiy vositasidir. U yozma va og'zaki nutq jarayonida o'z ijtimoiy vazifasini bajaradi. Nutqning adabiy va shevaga xos ko'rinishlari bor.

Adabiy nutq so'z san'atkorlari – yozuvchilar, shoirlar, olimlar tomonidan ishlangan, qat'iy me'yorlarga ega bo'lgan nutq ko'rinishidir. Adabiy nutqda har bir so'z va qo'shimchalarning talaffuzi, imlosi, qo'llanilishi, ma'nolari aniq me'yorlar bilan chegaralangan. Bu me'yorlarni buzish qo'pol xato sanaladi. Odatda, barcha rasmiy yozishmalar, xujjatlar, o'qitish ishlari, matbuot xabarlar adabiy nutqda

amalgaga oshiriladi. Adabiy nutq me'yorlarini buzish nafaqat savodsizlik va madaniyatsizlik, balki o'z ona tiliga nisbatan xurmatsizlik belgisidir. Mana shu sababdan umumta'lim maktablarida "Ona tili" asosiy o'quv fanlaridan biri sanaladi. Zeroki, bu fan adabiy nutq me'yorlarini o'rgatadi, sizda undan foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Adabiy nutqning muayyan sohadagi muloqot uchun moslashtirilgan, bir qator o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanib turadigan ko'rinishlari – uslublari mavjud:

1. Badiiy uslub. 2. ilmiy uslub. 3. rasmiy-idoraviy uslub.

Badiiy uslub badiiy adabiyot, badiiy asarlarga xos bo'lib, unda badiiylik, ifodaviylik, ta'sirchanlik kuchlidir. Ilmiy uslubga mantiqlilik, aniqlik, ilmiy atamalarning keng qo'llanilishi xos bo'lib, barcha ilmiy asarlar, jumladan maktab darsliklari ham shu uslubda yozilgan.

Rasmiy-idoraviy uslub o'ziga xos nutq uslubidir. Barcha qonunlar, prezident farmonlari va hukumat qarorlari, turli hujjatlar, ish qog'ozlari, idoralararo yozishmalar va shu kabilar rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Rasmiy uslubda gaplar ixcham va aniq bo'ladi. Bu uslubda qaror qilindi, inobatga olinsin, ijro uchun qabul qilinsin, tasdiqlanadi kabi qoliplashgan so'zlar va so'z birikmalari keng qo'llaniladi.

Darsliklarda "Nutq uslublari" mavzusi quyidagicha yoritilgan.

Uslubiyat. Yozma nutq uslubining turlari.

Uslub – so'zlovchi va yozuvchining ifodalanayotgan fikrga, voqea, hodisaga shaxsiy munosabatidir. Shu yo'l bilan ayni bir jumlada qo'shimcha uslubiy (modal) mazmun ham ifodalanadi. Masalan: Ol, jiyani, yo'l yurib kelgansan. (O.) Bu jumlada so'zlovchi suhbatdoshiga qarindoshligini bildirishi bilan birga, unga o'z mehribonligini ham ko'rsatmoqchi. Gapda uslubiy (modal) mazmuni maxsus so'z va iboralar (undalma, kichik so'z, sinonimlar, frazeologik virlik va gaplar, sheva, biror kasbga oid so'zlar va h.k.) orqali ifodalanadi. Hamma so'z ibora va sintaktik qurilmalar ham ma'lum bir nutq uslubini yaratishga xizmat qilavermaydi: qalam, kitob, daraxt va shunga o'xshash so'zlar o'z aks ma'nosida

biror uslubga betaraf soʻzlardir. Ular nutqning biror turini tashkil etishlari uchun koʻchma maʼnoda qoʻllanishi kerak: qalami oʻtkir. Hasratim bir kitob boʻladi. Daraxt bir joyda koʻkaradi kabi.

Nutqning ijtimoiy vazifasiga qarab uslub turlari har xil boʻladi: har bir ijtimoiy qatlam, toifaning oʻz nutq uslubi boʻladi. Shunga koʻra, uslub avvalo soʻzlashuv va yozma nutq uslublariga boʻlinadi. Soʻzlashuv nutqida ona tilidagi bor imkoniyatlardan foydalanilsa ham, har bir toifaning nutqiga oʻziga xoslik seziladi: olimlarning suhbatlari bilan ishchi, xizmatchi, dehqonning soʻzlashuvida boʻladi.

Ogʻzaki soʻzlashuv uslubi grammatik qurilishi sodda, qisqa, mazmunan taʼsirchan boʻladi. Bunda xalq maqol va qoʻshiqlar, soʻz oʻyinlari – pichinglar, hazil – mutoyibalar, askiya va qochirimlar muhim manba sanaladi.

Yozma nutq maʼlum bir fonetik, leksik, grammatik qonuniyatlarga asoslanadi. Yozma nutq adabiy til meʼyorlari asosida tuzilgan rasmiy tildir. Yozma nutq uslubi, asosan, quyidagi turlarga boʻlinadi: rasmiy ish qogʻozlari uslubi, ilmiy uslub, ommaviy uslub, badiiy uslub.

Rasmiy ish qogʻozlari uslubi. Bu uslub shaxslar bilan shaxslar orasidagi, shaxslar bilan idora oʻrtasidagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi: ariza, tilxat, telegramma, tavsiyanoma, hisobot, buyruq kabi. Qisqalik, aniqlik, soddalik rasmiy ish qogʻozlarining bosh belgilaridir. Ibora va jumlar bir qolipga boʻladi. Davlat hujjatlarida, rasmiy uslubda soʻzlar koʻchma maʼnoda ishlatilmaydi.

Rasmiy hujjatlarning tuzilishi ham berilgan. Masalan, Ariza, 1. Qayerga yoki kimga. 2. Ariza yozuvchining turar joyi, lavozimi, ismi, otasining ismi, familiyasi 3. Ariza matni 4. Sana 5. Imzo

Ilmiy uslub. Fan va texnika tili ilmiy uslub deyiladi. Ilmiy tilning asosi atama, taʼriflar, qoidalar, qonunlardir. Jumladan, atamalar faqat bir maʼnoda qoʻllanib, oʻzi ifodalayotgan tushunchaning tub mohiyatini koʻrsatadi, masalan, oʻzak, negiz, yasovchi qoʻshimcha, turlovchi va tuslovchi qoʻshimchalar, shakl yasovchilar kabi atamalar soʻz tarkibiga oid lingvistik tushunchalarni ifodalaydi.



Ommabop (publisistik) uslub. Ommabop uslub – matbuot, radio, teleko‘rsatuvga xos bo‘lgan turdir. Bu uslub rasmiy va dolzarb habarlar, axborotlar, e‘lonlar, reportaj, bosh maqolalardan iborat bo‘ladi. Ularda fikr kichik hajmdagi ommabop jumlar orqali ifodalanadi, zarur o‘rinda asoslar keltiriladi. SHuning uchun ham rasmiy habarlarda “muhbirimizning habar berishicha, elchixonona xodimining so‘ziga ko‘ra, muhbirimiz voqea ro‘y bergan joydan habar beradi”. Va h.k. iboralar qo‘llanadi.

Ommabop uslub kundalik ijtimoiy hayot ko‘zguvidir.

Ommabop uslubni shakllantiruvchi vositalar ijtimoiy siyosiy atama va atama birikmalari bo‘ladi: fuqarolik burchi, iqtisodiy tejamkorlik, siyosiy vaziyat, siyosiy va ijtimoiy kuchlar, iqtisodiy vaziyat, hukumat tangligi va b.

Badiiy uslub. Badiiy asarlar o‘ziga xos uslubda yoziladi. Badiiy uslub umumiy xususiyatlarga ega bo‘lish bilan birga, uninghar bir turi (nazm, nasr, hikoya, qissa, roman, novella, doston va b.) o‘z yo‘li, o‘z vositalari, o‘z uslubiga ega bo‘ladi.

## 2.2. “Nutq uslublari” mavzusini o‘tish yuzasidan dars ishlanmalari

Har bir insonning madaniyatligi, savodxonligi uning so‘zi, nutqi bilan o‘lchanadi. Nutq orqali kishining ichki dunyosi – qobiliyati, odamgarchiligi, rostgo‘ylik kabi fazilatlari oydinlashadi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida, kasb-hunar kollejlarda, akademik liseylarda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish uchun kurash barcha o‘qituvchilarning, ayniqsa ona tili va adabiyot o‘qituvchisining asosiy vazifasi sanaladi.

O‘quvchining nutqini o‘stirish ishi bola maktabga birinchi qadam qo‘ygan kundan boshlanadi. Nutq ko‘nikmalari izchil ravishda olib borilgan amaliy ishlar natijasidagina hosil bo‘ladi. Shuning uchun o‘qituvchi grammatikaning har bir bo‘limiga oid mashg‘ulotda o‘tilgan mavzu asosida o‘quvchilarning nutq ko‘nikmasini o‘stirishga e‘tibor berishi lozim.

Har bir insonning madaniyatligi, savodxonligi uning so‘zi, nutqi bilan o‘lchanadi. Aslida, so‘z shaxs ma‘naviyatini namoyon etuvchi birinchi belgidir. Mumtoz adabiyotimiz namoyandalaridan biri Nishotiy so‘zni o‘z o‘rnida qo‘llamagan insonni hatto “inson emas” deb ham ataydi. Zero, nutq orqali kishining ichki dunyosi — qobiliyati, turli fazilat va nuqsonlari (odamgarchiligi, xaqiqatparvarligi, kuyinchakligi, kamtarligi, mehnatsevarligi, rostgo‘ylik yoki manmanligi, yolg‘onchiligi, qo‘polligi, dangasaligi, loqaydligi kabi) oydinlashadi.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida, kasb-hunar kollejlarda, akademik liseylarda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish uchun kurash barcha o‘qituvchilarning, ayniqsa ona tili o‘qituvchisining asosiy vazifasi sanaladi.

O‘quvchining nutqini o‘stirish ishi bola maktabga birinchi qadam qo‘ygan kundan boshlanadi. Nutq ko‘nikmalarining shakllanishi va rivoji izchil ravishda olib borilgan amaliy ishlar natijasidagina hosil bo‘ladi. SHuning uchun o‘qituvchi grammatikaning har bir bo‘limiga oid mashg‘ulotda o‘tilgan mavzu asosida o‘quvchilarning nutq ko‘nikmasini o‘stirishga e‘tibor berishi lozim. O‘quvchilarning nutq madaniyatini tarbiyalash va ishni muayyan reja asosida olib borish uchun ular nutqidagi nuqsonlar va ularning sabablarini o‘rganish katta metodik ahamiyatga egadir.

Bu sabablar:

- 1) mahalliy sheva yoki oilaviy muhit ta'siri;
- 2) «ko'cha tili»ning ta'siri: pul o'rniga yakan so'zlarini ishlatish hollari uchraydi.
- 3) adabiy til normalariga amal qilmaydigan o'qituvchilarning nutqi;
- 4) o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishga etarli e'tibor bermaslik;
- 5) nutq organlarining birida g'ayritabiiy kamchilikning bo'lishi yoki ortiqcha erkalatib yuborish tufayli ayrim o'quvchilarda bo'ladigan individual nuqsonlardir. Masalan, gunglik, tili chuchuklik, «r» tovushi o'rniga «y» ishlatish (berdim-beydim). Ana shunday nuqsonlarning oldini olish yoki ularni mumkin bo'lgan darajada bartaraf qilish ham ona tili darslari oldiga ko'yilgan muhim vazifalardan sanaladi.

Mana shu jarayonlarda badiiy adabiyot namunalaridan foydalanish alohida ayricha ahamiyat kasb etadi. Bunda o'zbek xalq og'zaki ijodi, mumtoz adabiyot, zamonaviy adabiy jarayon, jahon adabiyoti namunalaridan foydalanish imkoniyatlari katta. Ular o'quvchilarga ayrim morfologik hodisalarning real nutq jarayonidagi holatini ko'rsatish uchungina emas, ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, badiiy-estetik didlarining takomillashtirilishi uchun ham munosib hissa qo'sha oladi.

Shuningdek, turli ilmiy, publisistik, siyosiy tarixiy adabiyotlarga murojaat qilish, o'quvchining ayni bosqichda o'rganayotgan boshqa o'quv predmetlaridan misollar keltirish ham pedagogik tajribada o'zini oqlagan usullardan hisoblanadi.

Bola shaxsi ulg'ayib borgan sari olamni o'zlashtirishning turli-tuman shakl va usullari bilan to'qnash kela boshlaydi. U olamni avval «o'zicha» o'rgana boradi. Oiladagi muhit, maktabdagi darslik va qo'llanmalar, boshqalar bilan bo'lgan muloqotlar uning asosiy omillari bo'la boradi. Akademik lisey va kasb-hunar kollejlaridagi turli fanlarning asoslari bilan ancha keng qamrovdagi tanishish bu jarayonning nazariy va amaliy jihatlariga poydevor vazifasini ado etadi. Ayni shu holat o'quvchining fuqarolik faoliyati uchun ham katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki «ilmiy dunyoqarash dunyoga, tabiatga, jamiyatga qarashlar tizimigina

emas, balki faoliyat uchun, ijtimoiy faollik uchun qo‘llanma ham bo‘lib, kishining jamiyatdagi nuqtai nazarini, tabiatga, o‘zini qurshab turganlarga bo‘lgan munosabatini belgilab beradi».

Keyingi yillarda fanlararo integrasiya muammolarining kun tartibiga tobora jiddiyroq qo‘yilayotganligi yaxshi ma’lum. Bu bejiz emas. Hozirgi informasiyalar oqimining shiddatli tus olayotgan bir jarayonida busiz fan va texnika, ijtimoiy taraqqiyot sohasida olg‘a yurishning o‘zi mumkin bo‘lmay qoladi. Demak, bizning bugungi o‘quvchilarimiz, ya‘ni jamiyatimizning erta kunidagi faol a‘zolari bunga tayyor turishlari, hozirdanoq bu jarayoi uchun mustahkam asos yaratishlari joiz.

Shunday ekan, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida ham, akademik liseylarda ham barcha fanlarni o‘rganishda ularning o‘zaro aloqadorligiga ko‘proq tayanish zarurati mavjud. Ona tili darslarining ham bu jarayonlardan chetda qolishi mumkin emas.

Bu jarayonda ona tilining imkoiyatlarini juda katta ekanligini ta‘kidlash ortiqchalik qilmas. Ona tilining ushbu jarayonlardagi o‘rni beqiyos. Bu borada unga teng keladigan birorta ham o‘quv predmeti yo‘q deganimizda, nazarimizda, biz boshqa fanlarni kamsitmoqchi emasligimizni ta‘kidlashimiz kerak.

Bob yuzasidan xulosa

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida, kasb-hunar kollejlarda. akademik liseylarda o‘quvchilariing og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish uchun kurash barcha o‘qituvchilarning, ayniqsa ona tili o‘qituvchisining asosiy vazifasi sanaladi.

O‘quvchining nutqini o‘stirish ishi bola maktabga birinchi qadam qo‘ygan kundan boshlanadi. Nutq ko‘nikmalarining shakllanishi va rivoji izchil ravishda olib borilgan amaliy ishlar natijasidagina hosil bo‘ladi. SHuning uchun o‘qituvchi grammatikaning har bir bo‘limiga oid mashg‘ulotda o‘tilgan mavzu asosida o‘quvchilarning nutq ko‘nkmasini o‘stirishga e‘tibor berishi lozim. O‘quvchilarning nutq madaniyatini tarbiyalash va ishni muayyan reja asosida olib borish uchun ular nutqidagi nuqsonlar va ularning sabablarini o‘rganish katta metodik ahamiyatga egadir.

## BIR SOATLIK DARS ISHLANMA

### Darsning texnologik xaritasi

N	Mavzu	Nutq uslublari haqida ma'lumot (1 - soat)
1	<b>Maqsad va vazifalar</b>	<p><b>Maqsad:</b> a) <b>ta'limiy:</b> Nutq uslublari haqida ma'lumot berish, uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlarni farqlashga o'rgatish ;</p> <p>b) <b>tarbiyaviy:</b> o'quvchilarni axloq-odob me'yorlariga o'rgatish;</p> <p>s) <b>rivojlantiruvchi:</b> o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish, mustaqil fikrlash doirasini kengaytirish.</p> <p><b>Vazifalar:</b> O'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish. Didaktik materiallar tayyorlash va undan dars jarayonida o'rinli foydalanish, ko'nikma va malakasini oshirish. Mavzuga oid berilgan savol va topshiriqlarni qay darajada ekanligini nazorat qilish va baholash;</p>
2	<b>O'quv jarayonining mazmuni</b>	Nutq uslublari haqidagi ma'lumotlar. Didaktik materiallarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati; Didaktik materiallardan o'rinli foydalanish; Didaktik materiallar tayyorlash usullari;
3	<b>O'quv jarayonini</b>	<b>Uslub:</b> O'quvchilarni alohida guruhlariga ajratish, guruhlararo "Venn diagrammasi" "Klaster", "Mozaika",

	<b>amalga oshirish texnologiyasi</b>	<p>munozara va boshqa interfaol uslublar orqali dars jarayonini amalga oshirish;</p> <p><b>Shakl:</b> kichik guruhlarda va yakka ishlash;</p> <p><b>Vosita:</b> darslik, rasmi tarqatma materiallar, ko'rgazma qurollar (guruhlar uchun), rag'bat kartochkalari, guruh nomi yozilgan dastak, o'yin shartlari yozilgan ko'rgazma.</p> <p><b>Nazorat:</b> savol-javob, jadval to'ldirish</p> <p><b>Baholash:</b> rag'bat kartochkalari vositasida va 5,4,3 balli tizim asosidabaholash;</p>
4	<b>Kutiladigan natijalar</b>	<p><b>O'qituvchi:</b> mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishadi, o'quvchilar faolligini oshiradi, ularda fanga, mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bir darsda barcha o'quvchilar baholanadi, mavzuni mustaqil o'rganish va xotirada saqlash, savol berishga o'rgatadi.</p> <p><b>O'quvchi:</b> mavzu haqida yangi bilimlarni egallaydi. Mustaqil ijodiy ishlashni o'rganadi. Nutqi rivojlanadi. Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi.</p>
5	<b>Kelgusi rejalar</b>	<p>Pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish va darsda tashkil etish, takomillashtirish, o'z ustida ishlash. Pedagogik mahoratini oshirish. O'quvchilar mustaqil bilimlarni o'zlashtirishni o'rganadi. Izlanish, mustaqil o'quv tadqiqotlari qilish, hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi.</p>

### Darsning blok-sxemasi

Ishning bosqichlari	Bajariladigan ishlar mazmuni	Belgilangan vaqt
1-bosqich. Tashkiliy qism	1. O‘quvchilar bilan salomlashish. 2. Sinf davomati bo‘yicha sinf navbatchisini tinglash 3. O‘quvchilarning darsga tayyorgarligini kuzatish. 4. “Oltin qoidalar”ni e‘lon qilish.	3 daqiqa
2-bosqich. Yangi mavzu bayoni	O‘quvchilarga mavzuni to‘laligicha tushuntirish, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish,”Klaster” usulidan ,rasmli ko‘rgazmalardan foydalanish.	15 daqiqa
4-bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash	“Kvadrat testlar”, “Bittasi ortiqcha” testi, munozara va savol-javob, ”Klaster” usulidan foydalanish.	17 daqiqa
5-bosqich. Baholash	1.Ishtirokchilar faolligini etiborga olish. 2.Ballarni e‘lon qilish, g‘olib guruhlarni rag‘batlantirish	3 daqiqa
6- bosqich. Dars yakuni	1.Uyga vazifa berish. 221-mashq.Nutq uslublarining har biriga bittadan gap tuzing.Gaplarning uslubiy farqlarini tushuntiring 2.Uyga vazifani tushuntirish	2 daqiqa

**1-tarqatma.**

Publitsistik uslub haqida bilganlaringizni ayting.

**2-tarqatma.**

Ilmiy uslub haqida bilganlaringizni ayting.

**3-tarqatma.**

Badiiy uslub haqida bilganlaringizni ayting.

**4-tarqatma.**

Rasmiy uslub haqida bilganlaringizni ayting.



Dars shiori: "Tilga ixtiyorsiz - elga e'tiborsiz"(A.Navoiy)

I. **Tashkiliy qism.**

O'quvchilar bilan salomlashaman. Sinf navbatchisi orqali bugungi davomatni aniqlayman. Sinning tozaligini va o'quvchilarning o'quv qurollari bor yoki yo'qligini nazorat qilaman.

O'quvchilarning diqqatini jamlash va darsga qiziqishini oshirish uchun "Kim topqir" savol javob o'yinini o'tkazaman. Bunda turli sohaga oid 3 ta savol beraman va birinchi javob bergan o'quvchini rag'batlantiraman.

1. Ko'chirma gaplar deb qanday gaplarga aytiladi?
2. Yer yuzidagi eng baland tog' cho'qqisi qaysi?

O'quvchilar darsga tayyor ekanligiga ishonch hosil qilgach oltin qoidani eslataman va darsni boshlayman.




Biz o‘tgan darsimizda ”Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplar” mavzusi yuzasidan mustahkamlash darsi o‘tgan edik. Shu sababli va bugungi mavzuyimizning ko‘lami biroz kengroq bo‘lganligi uchun o‘quvchilardan o‘tilgan mavzuni so‘ramayman. O‘quvchilarning faolligini oshirish uchun ularni 2 guruhga ajrataman ” Barkamol avlod” va ”Yuksak ma’naviyat” deb nom qo‘yaman har bir guruh nomini izohlovchi jumlar keltiram.


”Barkamol avlod – kelajak poydevori”

”Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch”


O‘quvchilarni baholashda svetoforning 3 rangini tanlayman va quyidagicha izohlayman.



A'lo (5 ball)



yaxshi (4 ball)



qoniqarli (3 ball)

Yangi mavzuni boshlashdan oldin o‘quvchilarning tasavvurlarini jonlantirish maqsadida rasm asosida matn tuzish topshirig‘ini beraman . Bunda o‘quvchilar turli nutq uslublariga xos bo‘lgan matn tuzadilar. Matnlar bitta rasm asosida ,turli nutq uslublarida tuzilishi lozim bo‘ladi.

**Taqdimot:**

**O‘quvchilar tuzgan matnlarini o‘qib beradilar. Matnlar qaysi uslubga xosligini aniqlashga harakat qiladilar.**

**Muhokama:**

**1. Tuzgan matningiz uslubini qanday aniqladingiz?**

**2. Rasmdagi tasvirlardan qanday taassurot oldingiz?**

3. Suratchining mahoratini qanday baholaysiz?

4. Matn tuzishda qanday tasviriy ifodalar yoki ilmiy atamalardan foydalandingiz?

5. Rasmdagi hamma tasvirlarni so‘z bilan ifodalash mumkinmi?

Mavzu bo‘yicha berilgan 1-topshiriq asosida o‘quvchilar matnni ichida o‘qib chiqadilar. Matn mazmuni saylanma tarzda 3-4 o‘quvchidan so‘raladi. Matn uslubini o‘quvchilar aniqlashga harakat qiladilar. Shundan so‘ng bugungi mavzuning nazariy jihatlari bilan tanishib chiqamiz.


## YANGI MAVZU

Nutq uslublari haqida ma’lumot. Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagima’lum soha doirasiga , ma’lum nutqiy vaziyatga xoslangan ko‘rinishi nutq uslubi sanaladi. So‘zlar ham ma’lum nutq uslubiga xoslanish – xoslanmaslik belgisiga ko‘ra uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so‘zlarga bo‘linadi.

Ayrim nutq uslubi doirasidagina qo‘llanadigan so‘zlar uslubiy xoslangan so‘zlar, bunday xususiyatga ega bo‘lmagan so‘zlar uslubiy betaraf so‘zlar sanaladi.


O‘zbek tilining nutq uslublarini quyidagicha tarmoqlash mumkin:

# Idrok xarita



Demak nutq uslublari ko'rib o'tdik. Ko'rilgan idrok xartasida nutq uslublari turlari va hayotimizdagi ishlatilish o'rinlari berib o'tilgan. Demak, nutq uslublari har biri o'ziga xos xususiyatga ega ekan. O'quvchilarga nutq uslublari farqlash va ularni o'z o'rnida qo'llay olishning nutq madaniyatiga juda katta ta'siri borligini bir qancha misollar yordamida tushuntirib beraman. beraman.

## MUSTAHKAMLASH




Mavzuni mustahkamlash uchun dastlab darslikda berilgan mashqlar ustida ishlaymiz. Guruhlarga ,1-guruhga 217-mashq, 2-guruhga 218-mashq bajarish uchun beriladi. Guruhlar mashqda berilgan matnlarning uslubini aniqlaydilar. Mashqlar og'zaki bajariladi. Guruhlar mashqlardagi uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlarni jadval tarzida joylashtiradilar.

Uslubiy xoslangan soʻzlar	Uslubiy betaraf soʻzlar
Modda	Usul
Kimyo	Sifat

Guruhlarning topqirligini sinash maqsadida topshiriqlar beramiz  
 ”Barkamol avlod ”guruhiga ”Kvadrat testi” oʻyinini beramiz.

### “KVADRAT TEST”



”Yuksak ma’naviyat” guruhiga **”Bittasi ortiqcha”** testi beriladi.

Quyidagi soʻzlardan qaysi biri uslubiy xoslangan soʻzlarga xos emas?

A.Toʻldiruvchi

B.Formula

C.Hujayra

D.Bola

E.Aniqlovchi

Guruhlarda mashqlar bilan ishlashni davom ettiramiz.219-mashqni “Barkamol avlod” guruhiga,220-mashqni ”Yuksak ma’naviyat” guruhiga beramiz.Guruhlar mashqda berilgan gaplarning uslubini aniqlaydilar. Va uslubiy xoslangan so‘zlarni “Baliq skleti”ga joylaydilar.



Top va joylashtir!

Barcha topshiriqlarni bajarib bo‘lgandan mavzuning umumiy xulosasini chiqarish uchun o‘quvchilar bilan ”Tushuncha va izoh” usulidan foydalanamiz.

T U S H U N C H A	I Z O H
Adabiy til	
Nutq uslubi	
Uslubiy xoslanish	
Adabiy til me’yori	
So‘zlashuv uslubi	
Rasmiy uslub	
Ilmiy uslub	

## II. Bosqich. Darsni yakunlash va o‘quvchilarni baholash.

Darsni yakunlayman, har bir guruhning olgan 3 xil darajadagi ballarini hisoblayman. G‘olib guruhni e’lon qilaman guruhda faol qatnashgan o‘quvchilarni jurnalga va kundaliklariga baholayman.

## VI. Uyga vazifa berish.

“Qalbmida Vatan tuyg‘usi” mavzusida insho yozing. Inshoda O. Sharafiddinovning “O‘lsam ayrilmasman quchoqlaringdan” maqolasidagi ibratomuz jumladan foydalaning. Badiiy va publitsistik uslubga xos unsurlarni toping. Mustaqil ravishda “Klaster” usulida Vatanningizni izohlang.

## XULOSA

E’tiboringizga havola etilgan mazkur dars ishlanmasi “nutq uslublari” mavzusi asosida tuzildi.

Ushbu dars ishlanmasida men mavzuga ijodiy yondoshishga harakat qildim. O‘quvchilarning mavzuga qiziqishini va darsda faolligini oshirish maqsadida yangi texnologiya usullaridan foydalandim.



## XULOSA

Mustaqillikdan so‘ng respublikamiz hayotida yuz bergan tub ijtimoiy-iqtisodiy burilishlar umumta‘lim maktablarida “Ona tili” fanini o‘qitish oldiga ulkan talablarni qo‘ydi. Bunday talablar har bir “Ona tili” darslarida, jumladan, “Nutq uslublari” ga oid mavzularni o‘tishda qo‘shimcha o‘quv materiallari, hamda zamonaviy o‘qitish usullaridan foydalanishni taqozo etadi.

“NUTQ USLUBLARI” mavzusini o‘tishda o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ularni tilning leksik qatlamidan unumli foydalanishida va bu jarayonda ularning ijodiy fikr mahsulini to‘g‘ri, ravon, maqsadga muvofiq tarzda bayon qilishga o‘rgatish mavzuning mukammal o‘zlashtirilishiga hamda o‘quvchilarning faolligini oshirishga xizmat qiladi. Bu yo‘nalishda tashkil qilingan mashg‘ulotning bosh maqsadi ham grammatik qoidalarni quruq yodlatish bilan chegaralanmasligi kerak.

Quyida “NUTQ USLUBLARI” mavzusini o‘tish bo‘yicha yuzaga kelgan xulosalarimizni bayon qilamiz:

1. Ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchiga asos va qo‘shimcha, yetakchi va ko‘makchi morfema, so‘zning yasaliş asosi, morfem strukturasi tasnifi masalasi bo‘yicha ma‘lumot berilishi muhim ahamiyatga egadir.

2. “Uslubiyat” ga oid mavzularning o‘tilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu mavzularni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarnutq uslublari, so‘z ma‘nolari, so‘zning tuzilishi nutqda qo‘llanuvchi turli-tuman ko‘rinishlari bilan tanishadilar, ularning qo‘llanish o‘rni, mazmuni, shakllanishi kabi masalalardan xabardor bo‘ladilar.

3. Ta‘lim tizimiga o‘qitishning yangi texnologiyalari jalb etila boshlandi. Shunday sharoitda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishning eng muhim vositalari sanalgan turli yozma ishlarga e‘tibor kuchaytirildi. 5-9-sinflarning darsliklarida yozma ishlar uchun alohida o‘quv soatlari ajratildi. Bu o‘quv soatlari sinflar kesimida tulicha bo‘lib, ular oldiga qo‘yilgan asosiy maqsad

o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini yanada shakllantirish, imlo savdixonligini oshirishdan iboratdir.

4.O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini shakllantirish o'ta murakkab jarayon sanaladi. Bu ish ko'proq ona tili ta'limi zimmasiga tushsa ham, maktabda o'qitiladigan barcha fanlar, radio va teleeshittirishlari, matbuot, badiiy adabiyot, bolani o'rab turgan muhit singari omillar ham o'quvchilar so'z boyligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

5. O'quvchilarning so'z boyligini oshirishning samarali yo'llaridan biri lug'atlar bilan ishlash sanaladi. O'quvchilarning so'zlarning imlosi, lug'aviy ma'nosi, so'zlarning yangi ma'no qirralarini aniqlashda lug'atlarga murojaat qiladilar va undan ko'mak oladilar. Shuningdek, matn ustidagi amaliy ishlar ham o'quvchilarning so'z boyligi va nutq madaniyatini shakllantirishda, bayon, insho kabi yozma ish turlarini o'zlashtirishda katta o'rin tutadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаравон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2016.
2. I.A.Karimov O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida T.O‘zbekiston.2011-yil.
3. I.A.Karimov O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li Toshkent., 1992-y.
4. I. Karimov. Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, 1997.
5. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. “Ta‘lim to‘g‘risida”. Toshkent., 1997-y.
6. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida” Toshkent., 1997- yil.
7. Ahmedova H. O‘qituvchi nutqi madaniyati. (ma‘ruzalar matni), Qo‘qon, 2003.
8. Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va stilistika asoslari. Toshkent, 1987.
9. Begmatov E. Nutq madaniyati problemasining paydo bo‘lishi va asoslanishi. Toshkent, "Fan", 1973.
10. Begmatov E. Notiqning nodir boyligi. Toshkent, 1980.
11. Ibrahimov I. Uzbek milliy tilining nutq madaniyati masalalari. Toshkent, 1969.
12. Inomxo‘jaev I., Xo‘jaev A. Badiiy so‘z san‘ati. Toshkent, 1972.
13. Isxoqov F. E’tiqodimiz ham bor, e’tirozlarimiz ham. "Nutq madaniyatiga oid masalalar" tuplami. Toshkeng. 1973.
14. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. Toshkent, A. Navoiy nomidagi Uzbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007.
15. Mahmudov N, Kafiyev A, Yo‘ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish. Toshkent, 2003.
16. Mo‘minov S.M. O‘zbek muloqot nutqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Avtoref. Toshkent, 2000.
17. Nazarov K. Nutq madaniyatiga oid masalalar. Toshkent, 1973.

18. Ne'matov H. Bozorov O. Til va nutq. Toshkent, 1993.
19. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. Toshkent, 1993.
20. Po'latov I. P., Isamitdinov S. S., Odilov S. A. Ta'limdagi innovatsiyalar. Toshkent, "Fan" 2007.
22. Xayrullayev M., Haqberdiyev M. Mantiq. O'qituvchi, 1993.
23. Qosimova R. Ona tili darslarini nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish bilan bog'lab o'rganish - "O'zbek tili ta'limi jarayonida fanlararo bog'lanish masalalari". Toshkent, 2005.
24. Qo'ngurov R. Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari. Toshkent, "Fan", 1980.
25. Ahmedova H. O'zbek tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. Tafakkur. T. 2013.
26. Po'latov I. P., Ahmedov H. T. Nutq madaniyatini shakllantirish usullari. T. Fan va texnologiya. 2008.
27. Nurmonov va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. 2011.
28. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
29. Sayidahmedov N. Noan'anaviy dars. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003.
30. Sayidahmedov N., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. – Toshkent: RTM, 1999.
31. Сайидахмедов Н. Ноанъанавий дарс. Янги педагогик технологиялар.– Тошкент: Молия, 2003.
32. Султонова Г.А. Педагогик маҳорат.–Тошкент: ТДПУ, 2005.
33. Таълим жараёнида нутқ маданиятини шакллантириш масалалари (Ўзбек тили 5 - доимий анжумани тезислари). Тошкент: "Шарқ", 1999.
34. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Тошкент: Фан, 2006.
35. Шарафиддинов О. Она тилим – ифтихорим, инжа ганжинам. // «Ўзбекистон овози» газ. 2003 йил 11 декабрь.

36. Egamberdiyeva N., Abdurashidova A., Mamatov N. Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy komplektni shakllantirish texnologiyalari.–Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2015.
37. Egamberdiyeva N., Xodjayev B. Pedagogikaning ayrim dolzarb muammolari: mohiyat, talim va yechim. –Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.
38. O'rinboyev B., O'rinboyeva D. Hozirgi o'zbek tilining so'zlashuv uslubi.–Toshkent: Fan,1991.
39. Qurbonova M. Fitrat – tilshunos. –Toshkent: "Universitet" nashriyoti, 1996.
40. Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. Тошкент: "Ўқитувчи", 1992.
41. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.

### **Eletron ta'lim resurslari**

Elektron saytlar ro'yxati:

- <http://www.Ziyo.net>;
- <http://www.ziyouz.uz>;
- <http://www.uzedu.uz>;
- <http://www.kitob.uz>;
- <http://www.fikr.uz>;
- <http://www.edunet.uz>;

## **ILOVA.Tayanch so‘zlarning o‘zbekcha-ingilizcha lug‘ati**

Nutq – speech

so‘zlashuv - speaking

morfema – morpheme

lug‘at - vocabulary

lug‘atshunoslik – lexicography

morfologik - morphological

so‘z - word

yasama so‘z – derived word

qo‘shma so‘z - compound word

so‘z boshi - preface

tarjima – translation

filologik – philological

leksika - lexis

til – language

darslik – manual

qo‘shimcha – supplementary

asos – foundation

o‘zak – stem

vosita – means

shakl – form

mazmun – summary

metod – method

metodik – methodologies

o‘zbek tili o‘qitish metodikasi – the methods of teaching uzbek

faol – active

events of teaching - o‘quv jarayoni

affiks - affix

so‘z yasovchi affikslar – word building affixes

so‘z o‘zgartiruvchi affikslar – word changing affixes

yasamoq – make  
texnologiya – technology  
Tatbiq etmoq – apply  
Umumta’lim – public education  
Uzluksiz – continuous  
Uzviy – organic  
O‘qitish – teaching  
O‘yin – play, game  
Og‘zaki – oral, verbal  
Amaliy – practical  
An’anaviy – traditional  
Dars – lesson  
Integratsiya – integration  
Kasb – profession  
Fan – scientific  
Dastur - reversing rod  
Amaliy ish – practical work  
Axborot – report  
Ijodkorlik – creation  
Izchil – successive, consecutive  
Nazariya – theory  
Matn – text  
Gap – speech  
Ta’limot – education  
Transkripsiya – transcription  
Atama – term  
Izohli – explanatory  
Ibora - phrase  
Leksema - lexem